

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

Tog'ayev G'anisher Xasanovich

Surxon vohasi etnik tarixidan

5A220201 – O'zbekiston tarixi

Magistr darajasini olish uchun taqdim etilgan

D I S S E R T A T S I Y A

**Ilmiy rahbar: tarix fanlari nomzodi,
dottsent Nasrullaev Maxmud
Ibodullaevich**

SAMARQAND – 2012

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3-7
I BOB. SURXON VOHASI ETNIK GURUHLARINING SHAKLLANISH	
JARAYONI VA UNING TARIXI.....	8-23
1.1. Qo'ng'iroq etnik guruhining shakllanish jarayoni va kelib chiqish tarixi.....	11-15
1.2. Jaloyir, yuz, qatog'on, qarluq, turk etnik guruhlarining shakllanish jarayoni.....	16-23
II BOB. SURXON VOHASI AHOLISINING ETNIK TARKIBI.....	24-37
2.1. Vohadagi o'zbek etnik guruhlarining xududiy joylashuvi.....	24-30
2.2. Vohada boshqa etnik guruhlarining joylashuvi.....	31-37
II BOB. SURXON VOHASI ETNIK GURUHLARINING TURMUSH	
TARZI VA MADANIYATI.....	38-70
3.1. Surxon vohasi etnik guruhlarining xo'jalik mashg'ulotlari.....	38-56
3.2. Voha etnik guruhlarining an'anaviy madaniyati, urf-odatlar va ularga xos xususiyatlar.....	57-70
XULOSA.....	71-73
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	74-76
ILOVA	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Vatanimiz milliy mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyin tarixiy haqiqatni mafkuraviy tazyiq va ta'sirlardan xoli tarzda, xolisona va haqqoniy, adolat va tarixiylik nuqtai nazaridan xalqimizga etkazish imkoniyati yuzaga keldi.

Mustaqillik yillarida tarix faniga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'tgan yillar mobaynida davlatimiz rahbarining ko'rsatmalari asosida Vatan tarixini mustaqillik ruhi bilan sug'orilgan holda xalqqa etkazish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirildi. Zero, «... o'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q»¹dir.

Hozirgi kunga qadar Surxon vohasi etnik xususiyatlari, vohadagi etnik guruhlarning kelib chiqishi, voha bo'ylab joylashishi, yashash tarzi va xo'jalik mashg'ulotlari xususida ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan lekin butun voha bo'ylab joylashgan etnik guruhlarning etnomadaniy jarayonlari bir-biriga bog'langan holatda kompleks tadqiq qilinmagan.

Mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy-amaliy ahamiyati bir qator omillarda namoyon bo'ladi;

Birinchidan, Surxon vohasidagi mavjud etnik guruhlarning shakllanish tarixini o'zbek xalqi tarixi, etnologiyasi to'g'risida ma'lumot beruvchi manbalarga tayanmasdan amalga oshirish mumkin emas. Asrlar davomida o'zbek xalqi turli etnik komponentlarning tarixiy birikishi natijasida shakllangan va bu jarayonda o'ziga xos etnografik makon hosil qilgan Surxon vohasi aholisi ham katta nufuzga ega;

Ikkinchidan, aynan ushbu mavzuga murojaat etish voha yirik etnik guruhlarning Surxon vohasi bo'ylab joylashuvi tarixi, ularning moddiy madaniyati, yashash tarzi, xo'jalik mashg'ulotlarini batafsil yoritish imkoniyatini beradi. Bu esa o'z navbatida nafaqat Surxon vohasi axolisi, balki umum o'zbek etnologiyasining shakllanish tarixiga oid ilmiy qarashlarni boyishiga xizmat qiladi;

¹Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. Б – 4.

Uchinchidan, dissertatsiya mavzusining bugungi kun uchun dolzarbligi Surxon vohasi mahalliy aholisining etnik manzarasini o'ziga xosligi bilan asoslanadi. Jumladan mustaqillik yillarida Surxon vohasi moddiy madaniyati, urf-odatları, arxeologik va me'moriy yodgorliklari xalqaro miqyosda e'tirof etilib kelinmoqda. YUNESKO tomonidan 2002 yil Boysun xududi jaxon moddiy madaniyati durdonasi deb e'lon qilindi;

To'rtinchidan, dissertatsiya mavzusining dolzarbligini Surxon vohasi aholisining o'ziga xos xususiyatlari, qadimiy va ma'naviy madaniyat ko'rinishlari saqlanib qolganligi hamda bu mavzuni mustaqillikgacha ilmiy tarzda tadqiq qilinmaganligi bilan izohlash mumkin. Ushbu muammolarni kompleks tarzda tadqiq qilish o'zbek xalqining o'ziga xosligi, etnomadaniy qadriyatlari, uning o'tmishdagi va zamonaviy ma'naviy hayotini chuqur anglab etish imkoniyatini beradi.

Tadqiqotning davriy chegarasi. Tadqiqotning davriy chegarasi XVIII asr oxiri – XXI asr boshlarini qamrab olgan. Bu davr nafaqat Surxon vohasi etnik tarixida balki o'zbek xalqining tarixidagi eng muhim davr bo'lib hisoblanadi. XVIII asr oxiri – XXI asr boshlaridagi etnik jarayonlar tadqiqotchilar tomonidan juda kam o'rganilganligi va keng ko'lamli etnologik tadqiqot olib borilmaganligi ham bunga asos bo'ldi.

Tadqiqotning hududiy chegarasi. Tadqiqot uchun hududiy chegara sifatida Surxon vohasi (Surxondaryo viloyatidagi Boysuntog' va Bobotog' oralig'idagi Sheroboddaryo va Surxondaryo daryolari havzasi) belgilandi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, XVIII asr oxiri – XXI asrning boshlari Surxon vohasi etnik tarixi, moddiy va xo'jalik madaniyati hozirga qadar maxsus tadqiq qilinmagan. Biroq o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy madaniyatiga oid ishlarda ushbu mavzuning alohida yo'nalishlari bo'yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

Umuman olganda, ushbu mavzuga oid manba va adabiyotlarni to'rt guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruhga tarixiy manbalar va yozma yodgorliklar kiradi;

Ikkinchi guruhga Podsho Rossiya mustamlakachiligi davrida to'plangan ilmiy tadqiqotlar kiradi;

Uchinchi guruhga sovet istibdodi davridagi nashrlar kiradi;

To'rtinchi guruhga O'zbekiston mustaqilligidan so'ng bajarilgan ilmiy tadqiqotlar kiradi.

Dissertatsiyaning mohiyatini ochib berishda noyob tarixiy manbalar alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, xalq og'zaki ijodining eng qadimgi namunasi, turkiy xalqlar ma'naviy merosi bo'lgan "Alpomish"¹da, shuningdek, Narshaxiy, Maxmud Qoshg'ariy, Rashidaddin, Abulg'oz Bahodurxonlarning² tarixiy-badiiy asarlarida mahalliy aholi to'g'risida qimmatbaho etnografik materiallar berilgan.

1928 yilda Samarqandda ilmiy tadqiqot instituti tashkil qilinadi. Ushbu institutning etnolingvistik ekspeditsiyasi 1928 yilda Sherobod va Boysunda dala tadqiqotlarini olib boradi. Bu tadqiqotlar natijasida L.P.Potapovning Janubiy O'zbekistondagi o'zbek qo'ng'irotlarining etnik tarkibi, oila-turmush tarzi aks ettirilgan maqolasi bosilib chiqdi.

1945 yildan e'tiboran taniqli etnograf olimi B.X.Karmisheva O'zbekistonning qator tumanlari, jumladan, Janubiy Surxon vohasi aholisining etnognezi va etnik tarixi bo'yicha tadqiqotlarini boshlagan. Ilmiy tadqiqot natijalari uning monografiyalari va ilmiy maqolalarida aks ettirgan³. Ushbu ishlarda Janubiy O'zbekiston aholisining XVIII asr oxiri – XXI asrning birinchi choragidagi etnik tarkibi, alohida etnik guruhlarining shakllanishi, aholining mintaq bo'ylab joylashuvi to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan. Zikr etilgan ushbu monografiyada tadqiqot ob'ekti Janubiy Surxondaryoning Boysun va Sherobod vohasidagi o'zbeklar, shuningdek tojiklar, turkmanlar, arablar va boshqa xalqlar etnik tarixiga oid qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

1955 yildan e'tiboran K.Shoniyozov tomonidan Surxondaryo viloyatida istiqomat qiluvchi qarluqlarning etnik tarixi o'rganila boshlanadi va uning

¹ Алпомиш. Ўзбек қаҳрамонлик достони. Т., "Шарк", 1999.

² Шажараи турк. Т, 1992.

³ Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. М., Наука. 1976.

monografiyasida Surxondaryo viloyatining shimolida yashovchi O'zbek qarluqlarining etnografiyasiga oid ma'lumotlar berilgan¹. Tilshunos X. Doniyorovning monografiyasida Janubiy Surxon vohasida yashovchi qo'ng'iroq, qatog'on, tog'chi kabi o'zbek qavmlari tarixiga oid ma'lumotlar mavjud².

Taniqli etnolog O. Bo'rievning nomzodlik dissertatsiyasi Janubiy O'zbekiston o'zbeklaridagi katta oila va oilaviy-turmush munosabatlariga bag'ishlangan. O. Ibragimovning nomzodlik dissertatsiyasida aholining an'anaviy turar joylari xaqida ma'lumotlar mavjud. Lekin bu tadqiqotlar kommunistik mafkura xukmronligi davrida yaratilganligi sababli, o'zbek xalqining xaqiqiy etnik tarixi talablariga to'la javob bera olmas edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng milliy qadriyatlarimiz tiklana boshlandi. Milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz, milliy bayramlarimiz qayta tiklandi. Ularni tadqiq etish imkoniyati yuzaga keldi. O'zbek xalqining etnognezi va etnik tarixi bo'yicha yangi tadqiqotlar qilinishi ta'minlandi. Bu borada K.Shoniyozov, B. Ahmedov, I.Jabborovlarning tadqiqotlari muhim hisoblanadi.

Dissertatsiyani yozishda K.Shoniyozovning o'zbek elatining kelib chiqishi va shakllanishiga doir ilmiy maqolalari, A.Qayumov, I.Umarov, S.Tursunovlarning Surxon vohasi etnik tarixiga bag'ishlangan bir qator ilmiy maqolalaridan samarali foydalanildi.

Dissertatsiyaning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi Surxon vohasi aholisining etnik o'ziga xosligi va etnomadaniy taraqqiyotini, etnik tarkibi, turmush tarzi va xo'jalik madaniyatini ilmiy o'rganishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar ustuvor etib belgilandi:

- XVIII asr oxiri – XXI asrning boshlari Surhon vohasi etnik tarixi, vohadagi etnik guruhlarining shakllanish jarayonini ochib berish;
- Surxon vohasi etnik guruhlari tarkibidagi o'zgarishlar, etnik guruhlar o'rtasidagi etnomadaniy jarayonlarni taxlil qilish;

¹ Шаниязов К.Ш. Узбеки-карлуки. Т., Фан. 1964.

² Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. Т., Фан.,1968.

- Surxon vohasidagi yirik etnik guruhlarning voha bo'ylab joylashuvi tarixini yoritib berish;

- Surxon vohasi aholisining xo'jalik mashg'ulotlari, turmush tarzi, an'anaviy urf-odatlarini tahlil etish;

- tadqiqot natijalari bo'yicha umumiy, ilmiy xulosalar chiqarish.

Tadqiqotning manbaviy asoslari. Tadqiqotning manbaviy asosini mustabid sovet davri va mustaqillik yillarida chop etilgan tarixiy-ilmiy asarlar, dala tadqiqot yozuvlari, ilmiy tadqiqotlar, gazeta-jurnallarda nashr etilgan ilmiy maqolalar tashkil qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda mavzuga doir adabiyotlar, tadqiqotlar va ilmiy maqolalar ilk bor umumlashgan holda ilmiy jamoatchilik e'tiboriga xavola etildi.

Tadqiqotning ilmiy va uslubiy asoslari. Mazkur tadqiqot ilmiy xolislik va adolat tamoyillari, umumbashariy qadriyatlar asosida har bir manbaning mazmun hamda mohiyatidan kelib chiqib yaratildi. Tadqiqotni tayyorlashda tarixiylik, tizimlilik tamoyillariga tayanildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 16 dekabrda «O'zbekistonning yangi tarixini tayyorlash va nashr qilish haqida»¹gi hamda 1998 yil 27 iyulda «O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»²gi qarorlarida² bayon qilingan tarixiylik, vorisiylik va tadqiqot olib borishda yagona ob'ektiv usuldan foydalanish, tarixga xolisona yondoshish mazkur ilmiy izlanish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqot yakuniga ko'ra, unda keltirilgan ma'lumotlardan mavzuga doir ilmiy konferentsiyalar tashkil etish, tarixiy fanlar uchun o'quv-uslubiy majmualar yaratish, shuningdek, tarix yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar seminar mashulotlariga tayyorlanishda foydalanishlari mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi.

¹ Халқ сўзи, 1996 йил 17 декабрь.

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Фанлар Академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида»ги қарори // Ўзбекистон овози 1998. 28 июль.

I BOB. Surxon vohasi etnik guruhlarining shakllanish jarayoni va uning tarixi.

Surxon vohasi o'zbek xalqining ilk ajdodlari yashagan qadimiy madaniyat markazi hisoblanadi. Xolchayon, Dalvarzinda olib borilgan arxeologik qazishmalarda topilgan manbalar miloddan avvalgi II minginchi yillar o'rtalarida bu hudud aholisi o'troq xolida yashaganligini ilmiy asosda isbotladi¹. Bu davrda qadimiy qabilalarga xos moddiy madaniyat yodgorliklari, turar joylari, ularning dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanib kelganligini Surxon vohasida o'troq mahalliy aholi yashaganligini tasdiqlaydi. Miloddan avvalgi I-minginchi yillarning oxirlarida sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi bilan bu hududda Baqtriya davlati shakllandi. Yunon-Baqtriya tanga pullari, san'at buyumlari, harbiy qurol bezaklarida va sanamlarning sur'atlari o'yilgan oltin tovoqlarda va har xil toshlarda mahalliy aholining milliy qiyofasi, urf-odatlarini, xo'jaligi, tashqi aloqalariga oid voqiyalik aks etirilgandir.

Miloddan avvalgi I-minginchi yillarning o'rtalarida Baqtriya davlati hududida qadimiy elatlardan baqtriyaliklar, sug'diylar yashab, dehqonchilik rivojlanishi tufayli xo'jalikning boshqa tarmoqlari, to'qimachilik, kulolchilik, temirchilik rivojlanib mahsulotning ma'lum bir qismi bozorga chiqarilgan. Bu mahsulotlarning talaygina qismini ko'chmanchi chorvadorlar harid qilganlar yoki tovarga-tovar almashib olganlar. Shu tariqa savdo hamkorligi, o'troq aholining qishloq xo'jaligini, ko'chmanchilarning esa chorvachiligini yana ham taraqqiy etishini rag'batlantirgan. Yunon-Baqtriya davlati doirasida bo'lgan Surxon ko'chmanchi qabilalarning tinimsiz hujumi ta'sirida mahalliy aholini aralashuv va qo'shiluvi kuchayib borib, Salavkiylar imperiyasi (miloddan avvalgi 312-250) davrida mahalliy aholining iqtisodiy va madaniy hayoti tubdan o'zgarib bordi. Milodimizning boshida bu davlatni Yue-Chji (xitoy manbalarida shunday atalgan) qabilalari o'ziga bo'ysundirib, Kushon imperiyasi o'z tarkibiga olgan. Siyosiy va madaniy jihatdan ham Surxon yerlari Kushon imperiyasi ixtiyorida bo'lgan. Strabonning

¹ Турсунов С.Н., Пардаев Т.П. Сурхондарё этнографияси. ўқув қўлланма. Термиз., 2010. 10-бет.

ma'lumotlariga qaraganda Yunon-Baqtriya davlatini ag'dargan qabilalar assiylar (assianlar), passianlar, toharlar, sakaroukalar bo'lgan. Rim tarixchisi Yustin (milodiy II-III asr), Pompey Trogning (midoddan avvalgi I asr) ma'lumotlariga tayanib, Baqtriya va Sug'diyonani sakarouk va azianlar (assianlar bo'lishi kerak) bosib oladilar deb yozgan edi. Keyinchalik bu ko'chmanchi qabilalar ichidan Toharlarning siyosiy birikuvi kuchayib hukmron qabilaviy ittofoqqa ega bo'ldilar¹. Toharlar (yue-chji) Amudaryoning chap tomonidagi Baqtriya hududidan tashqari shu daryoning o'ng tomonidagi, hozirgi O'zbekiston va Tojikistonning janubidagi mintaqalarni ham egallagan edilar. Bu viloyatlar milodan avvalgi II asrda Tohariston deb ataldi. Surxonning asosiy qismi ham Tohoriston tarkibiga kirib dehqonchilik madaniyati yuqori taraqqiy etib, arpa, bug'doy, no'xot, sholi va boshqa donli ekinlar etishtirganlar, daraxtzor va uzumzorlar bo'lgan, sut, qatiqlar serob bo'lgan. Tarixiy manbalarda milodiy V-asrning ikkinchi yarimida (aniqrog'i 468 yili) Toharistonda hokimiyatni qo'lga olgan qabilalardan biri eftaliylar bo'lib, Chin manbalarida bular yeda (ieda, eda) deb nomlangan. eftaliylar davrida (IV-VI asr o'rtalarida) Surxon vohasiga vaqti-vaqti bilan ko'chmanchi qabilalar kelib joylashib, o'zbek va tojik xalqlarining ajdodlari doimo ittifoq bo'lib, o'zaro iqtisodiy, madaniy va ma'naviy aloqada bo'lib yashaganlar. Mahalliy turkiy zabon aholining o'sishi tufayli VI-VIII asrlarda Surxon vohasi xududida ham etnohududlar vujudga kelib ijtimoiy hayotda o'zgarishlar yuz berdi. Bu davrda turkiy etnik guruhlardan qarluq, xalach, chigil qabilalari kelib o'rnamshib, Toharistonda qarluq yabg'ulari hukmronligini o'z qo'llariga oldilar. Arablar istilosi davrida Surxon aholisi qattiq talofat ko'rib, shahar va qo'rg'onlar yakson qilindi. Movarounnahr hududida mavjud bo'lgan Chag'aniyon o'zaro kurashlar va ichki nizolar bilan ovora bo'lib, o'z kuchlari bilan yerlarini bosqinchlardan himoya qilishga ojizlik qilgan.

Chag'aniyon vohasida yashovchi turkiy halqlar forsiy aholi bilan elkama-elka turib arab qo'shinlari bilan jang qilib, o'z yerlarini himoya qilib kelganlar. Bu holat VIII asr boshlarida keng tus olib, bu kurashga Abu Muzaxim rahbarlik qildi. Ilk

¹ http://arxeologiya.uz/index.php?option=com_docman&task=cat_view&gid=47&Itemid=96&lang=uz

o'rta asrlarda Chag'ayonning etnik va madaniy taraqqiyotida o'zbek halqining iqtisodiy madaniy hayot jihatdan shakllanishi kuchaydi¹. IX- X asrlarda Movarounahrda bo'lganidek Chag'aniyonda ham etnik tarkib bir xil bo'lmay, asosiy xalq qadimdan turg'un yashab, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanib kelgan. Arab istilosidan keyin Chag'aniyonni janubiy (hozirgi Denov, Qumqo'rg'on) xududlarida arablar turg'un bo'lib joylashib, turkiy zabon aholiga singib bordi. Shimoliy Tohariston hududida IX-X asrlarda bir necha tarixiy hududlar mavjud bo'lib, eng nufuzlisi Chag'aniyon (Sag'aniyon) hisoblangan: uning markaziy shahri Chag'aniyon bo'lib, arab geograflarining asrlarida, Chag'aniyon shahri Shimoliy Tohariston o'lkasidagi eng yirik shahar hisoblangan. Ammo undagi aholi soni Termiz shahri aholisidan oz bo'lgan. O.G.Bolshakovning taxmin qilishicha Chag'aniyon shahristonida 9-10 ming kishi yashagan. Ammo uning rabotida qancha kishi yashaganligi aniqlanmagan. Shimoliy Toharistonda yana bir hudud Chag'onrudning (Surxondaryo) yuqori oqimlarida joylashgan Axarum viloyati bo'lib, aholi sonini aniqlash qiyin bo'lsada aholi zich yashagan, shahar va qishloqlari nixoyatda ko'p bo'lgan. O'zbek elati shakllanishi jarayonining oxirlanishi X -XII asrlarda Movarounahrda va unga tutash mintaqalarga o'tadi. Uning tarkibiy qismi bo'lgan Surxonda yashovchi turk va tojik xalqlarining madaniy-iqtisodiy aloqalari ancha rivojlanadi. Turg'un aholi bilan yarim ko'chmanchi va yarim o'troq chorvodorlar orasida o'zaro iqtisodiy munosabatlar o'rnatilgan.

Surxon hududida yashagan turg'un turkiy aholi tojiklar bilan birga, ajdodlari yaratgan moddiy boylikning vorislari bo'lib, uni avaylab saqlab, himoya qilib, o'z hissalarini qo'shib, uni boyitib kelar edilar. Tojiklarning ba'zi guruhlar Qarluq va boshqa urug'larga aralashib, qorishib ketgan. X-XII asrlarda Surxon vohasi hududlariga Movarounnahrning shimoliy qismi Toshkent va Farg'ona tarafdan Arg'in ko'chmanchi turkiy qabilalari kelib joylashib o'troq aholiga qo'shilib ketdi. Vohada XVI-XVII asrlarda etnik joylashuv ancha kengayib turkiy va tojik xalqlari

¹ http://arxeologiya.uz/index.php?option=com_docman&task=cat_view&gid=47&Itemid=96&lang=uz

bilan yaqin etnik, iqtisodiy va madaniy aloqalar kengayib borgan. Surxon vohasi aholisini kelib chiqishi, lahjalari, antropologik tarkibi, turmush tarzi, xo'jaligi, urf-odatlar va urug' qarindoshchilik an'alarining o'ziga xos xususiyatlari nuqtai nazaridan uch guruhga bo'lish mumkin:

- Birinchi guruh qadimiy o'troq aholidan iborat bo'lib, uning tarkibiga urug'-qabilachilik an'alariga ega bo'lmagan qabilalar: xo'jalar, chig'atoylar, harduriylar va boshqalar kirgan;

- Ikkinchi guruh tarkibidan o'troq aholiga aralashib ketmagan, yarim o'troqlashgan hamda urug'-qabilachilik tartiblarini saqlab qolgan, mug'ullar bosqinidan ilgari va undan keyingi davrlarda kelgan turkiy qabilalar: qarluqlar, barloslar, kaltatoylar, turklar, qatog'onlar kirgan.

- Uchinchi guruhga Shayboniyxon istilosi davridan, ya'ni XV asr oxiri-XVI asr boshlarida kela boshlagan Dashti qipchoq o'zbeklari-yuzlar, qo'ng'irotlar, do'rmonlar va boshqalar kirgan.

1.1. Qo'ng'irot etnik guruhining shakllanish jarayoni va kelib chiqish tarixi.

Qo'ng'irot etnik guruhi bugungi kunda mamlakatimizning barcha xududlari bo'ylab yoyilgan. Bu etnik tarkibning kelib chiqishi va shakllanish jarayoni to'g'risida "Mo'g'ullarning sirli tarixi" (bu asar 1240 yilda mo'g'ullarning ulug' xoni Ugadoy buyrug'i bilan yozilgan), XIV asrda yashagan mashhur sharq tarixchisi Rashididin Fazlulloh Qazviniyning "Jom'e at tavorix" asarlarida batafsil ma'lumot beriladi.¹ Rashididinning ma'lumotiga ko'ra, oltin ustundan uch o'g'il Jo'rliq mergan (hozirgi qo'ng'irotlarning fikriga ko'ra qo'ng'irot qavmining bobosi), Kuboy-Shiro, Bustudoy paydo bo'lgan va ular Arkanaqunga(Arkana-tog'ning kamari va qun esa tez va o'tkir ma'nosida) borib joylashadilar va aynan shu aka-ukalar avlodlari qo'ng'irot qavmi deb hisoblanadi².

Qo'ng'irotlarning XV-XVIII asrlardagi tarixini o'rganishda Muhammad Solixning "Shayboniynoma", Muxammad Yusuf Munshiyning "Tarixiy Muqimxoniy", Xofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma. Sharafnomayi shohiy",

¹ И.Умаров. Ўрта Осиё туркий халқларининг этногенези.(Кўнғиротлар). Қарши. 2003. 4-5 бетлар.

² И.Умаров. Ўша асар. 10-бет.

Muxammadyor ibn Arab Muhammad Qatog'onning "Musaxxir al-bilod" (Mamlakatlarning fath etilishi), Abduraxmon Tolening "Tarixiy Abulfayzxon", Abulg'oziy "SHajarai turk" asari muhim ahamiyatga ega. Abulg'oziy "Shajarai turk" asarida qo'ng'irotlarning kelib chiqishini mo'g'ul xonlaridan bo'lgan Cho'rliq merganning o'g'li Qo'ng'irot nomi bilan bog'laydi¹.

Hofiz Tanish al-Buxorish qo'ng'irotlarning kelib chiqishi haqida quyidagilarni yozadi: "Bu jamoa ham Arkanakunga bongan ikki kishining naslidandur. Chunonchi, (ular to'g'risida) aytadilar va xikoya qiladilarki, bu qo'ng'irot qavmi boshqa (qavm) lardan avval, ular bilan kengashmasdanoq (Arkanakundan) tezlik bilan chiqib ketganlar va shunday qilib, boshqa qavmlarning otashdonlarini oyoqosti qilganlar. Mo'g'ullarning e'tiqodi shulki, qo'ng'irotlarda ko'p sodir bo'lib turadigan oyoq og'riqlarining sababi ularning o'sha xatti-xarakatlaridirki, ularning oyoqlariga o'sha zulmning nashtari tekkan"². Qo'ng'irot qavmidan juda ko'p boshqa qavmlar va tarmoqlar bo'lib ajralib chiqqan va ularning har biri o'ziga xos va muayyan bir nom bilan farq qilgan.

Qo'ng'irot so'zining etimologiyasi aniqlanmagan. Bir fikrga ko'ra, u "qoraqarg'a"³, boshqa fikrga ko'ra, "qo'ng'ir" va "ot" so'zlaridan hosil bo'lgan deyiladi. Tarixiy dalillar har ikki fikrni inkor etadi. Qo'ng'irot so'zining aslida xunn-churr-yut so'zlaridan tashkil topib, oldingi ikki so'z qabilalar (ya'ni, xunn(xion)lar bilan xurriylar) nomini, yut esa ham ko'plik, ham harbiy tuzilma ma'nosida tushinilib, xunn va xurrlarning harbiy ittifoqi degan ma'noni anglatadi. Ittifoq nomi etnik nomga aylanib, xunxurot-xunxirot-qo'ng'irot tarzida ifodalanadigan bo'ldi⁴.

Qo'ng'irotlar turk-mo'g'il qabilalari orasida Chigizxonga eng yaqin qavm bo'lib hisoblangan. Chunki qo'ng'irotlar unga xokimiyatni mustahkamlab olishga katta yordam berishgan. Qo'ng'irotlarning qiyotlarga, ya'ni chingiziylarga yaqin bo'lganligi ularning mavqei yuqori bo'lishiga olib kelgan. Chingizxonning harbiy

¹ Абулғозий. Шажараи турк. Тошкент. 1992. 38-39-бетлар.

² Хофис Таниш ал-Бухорий. Абдулланом, Шарафномаи шоҳий. 1-китоб, Тошкент., 1999. 18-19-бетлар.

³ Дониёров. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари., 87-бет.

⁴ И.Умаров. Ўрта Осиё туркий халқларининг этногези.(Қўнғиротлар). Қарши. 2003. 13 бет.

yurishlari davrida Dashti Qipchoq va Mavaraunnaxrdagi ko'pgina katta-kichik yoki kuchsizroq qabilalar asl mo'g'ullardan hisoblangan qo'ng'irotlar tarkibiga kirgan va o'zlarini shu nom bilan atashgan. Buning sababini Rashididdin quyidagicha izohlaydi: "Har xil urug'lar o'zlarining ulug'ligi va qadrini o'zlarini mo'g'ullarga qo'shish bilan belgilay boshlaydilar. Chunki Chingiz va uning urug'i mo'g'ul deb atalar edi. Ana shuning uchun ham jaloyir, tatar, oyrat, ungut, kerayit, nayman, tang'ut kabi har xil qabilalar endilikda o'zlarini mo'g'ulga qo'shib hisoblaydi"¹.

Agar qo'ng'irot urug'i jadvaliga nazar tashlansa, u holda kelib chiqishi qo'ng'irotlarga aloqasi bo'lmagan oyinli, taroqli, qaraqalpoq, saroy, mo'nka, to'g'iz, tulkichi, merkit singari yirik qabilalarning qo'ng'irotlar tarkibiga kirmaganligini guvohi bo'lamiz. Bu qabilalar bir vaqtlar katta nufuzga ega bo'lgan, keyinroq turli sabablarga ko'ra har yerga tarqalib, boshqa turkiy qabilalar qatoriga kirib qolganlar va aksincha boshqa turkiy qabilalardan qo'ng'irot urug'i tarkibiga kirib ketgan urug'lar ham mavjud. Ular jumlasiga aboxli, baymoqli, eshkili, ko'chaxo'r, oyinli, tortuvli, tulkichi kabi urug'larni kiritish mumkin.

Xalq orasida tarqalgan rivoyatlarning deyarli barchasida qo'ng'irot elining qo'ng'ir ot egasidan tarqalganligi aytib o'tiladi. Qumqo'rg'on tumanidagi Safar Boymatov nomli jamoa xo'jaligida yashovchi keksalarning rivoyatlariga ko'ra, qo'ng'irotlarning bosh bobosi Mamatqul Gudrabiy bo'lib, undan besh o'g'il qoladi. Katta o'g'li Alijonbekdan qo'shtamg'ali, Jonuqulbekdan oqtamg'ali, Mullajondan oyinli, Haydarqulbekjondan qonjig'ali, Xoluqulbekdan tortuvli urug'i tarqalgan ekan.

Surxon vohasida joylashgan qo'ng'irotlarning shajarasini ishlab chiqishda B.X.Karmishovanning xissasi katta. Karmishovanning asarida keltirilgan qo'ng'irotlarning genealogik jadvalida bu qabilaning beshta: vaxtamg'ali, qo'shtamg'ali, qonjig'ali, oyinli va tortuvli kabi urug'lardan iborat ekanligi ko'rsatiladi².

¹ Рашид ад-дин. Сборник летописей, том 1, Москва-Ленинград., 1952. 102-бет.

² Кармышова Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. Масква., 1976. 87 бет.

Qo'ng'irotlar orasida eng katta guruh vaxtamg'ali bo'lib, u 20 ta katta urug'ga bo'linadi. Bular: ochamayli, baymoqli, taroqli, chiniqli, qazayoqli, cho'michli, qaychili, ishqili, qiyg'ochli, jilontamg'ali, bolg'ali, qoraqo'ng'irot, bo'gajeli, o'yuvli, xandaqli, irg'oqli, aboqli, kesovli, gilambobli va ushkili urug'laridan iborat.

Qo'shtamg'alilar 16 ta katta urug'ga bulinadi. Bular: tulangut, tilovmat, qoraqasmoq, kal, barmoq, ko'lobi, sevribuzar, zamburi, ko'sa, o'troqli, ko'chaxo'r, bandikuchuk, oqpichoq, chol, mavlish va qoraqalpoq urug'lariga bo'linadi.

Qonjig'ali urug'i 14 ta: ulus, cho'llik, quyun, qorag'ursoq, moltaka, qo'ldovli, qorabuvra, do'ska, to'pqora, ko'rto'g'ay, no'g'ay, jelkillak, gala va qora urug'lariga bo'linadi.

Oyinlilar 12 ta: to'par, qachay, qoraqolpoq, qovg'a, churon, hojibachcha, turkman, qora, kel, beshbola, oqtona va oytamg'ali urug'lariga bo'linadi. Qo'g'irot tortuvlilar esa 6 ta: to'g'iz, mo'nka, maydatoba, cho'poq, aboxli, o'r urug'lariga bo'linadi.

Qo'ng'irotlarning vaxtamg'ali qavmi (Ochamayli va qozayoqli urug'lari) Sherobod vohasi, Surxonning quyi oqimi, Amudaryo vodiysi va Termiz atrofida, Qoratog'daryo xavzasida, Sheroboddaryoning o'rta oqimi hamda Ko'xitang tizmasining Sharqiy yonbag'ridagi bir qator qishloqlarida (G'orin qishloq, Jangiariq va Xo'jaqiya) istiqomat qilishlari qayd qilingan¹.

Qo'shtamg'alilar Sheroboddaryoning o'rta oqimi (Kallamozor qishlog'i), Kirshak daryosi havzasi va Xomkonda kichik va katta O'radaryo xavzalarida, shuningdek, Sherobod vohasi va Ko'xitangning shimoliy qismidagi Sho'rob, Chakchak davoni yaqinidagi va xozirgi Oltinsoy tumani xududlarida o'nashganlar. Qonjig'ali urug'i Sherobod vohasidan Jarqo'rg'ongacha, shuningdek Surxon daryosidan to Bobotog' tizmasiga, Termiz atrofidan Dehqonobodgacha tarqalganlar.² 12 uyli oyinli urug'i esa Sheroboddaryo xavzasining g'arbiy xududi bo'ylab joylashganlar. Tortuvli urug'i esa eski Boysun bekligining shimoliy

¹ Кармышова Б.Х. Ўша аср. 94-95 бетлар.

² И.Умаров. Ўша асар. 34- бет.

xududlarida joylashgan¹. Bugungi kungacha qo'ng'irotlar shu xududlarda istiqomat qilishib, voha etnik tarkibining asosiy qismini tashkil etishadi.

1.2. Jaloyir, yuz, qatog'on, qarluq, turk etnik guruhlarining shakllanish jarayoni.

Jaloyir urug'i. Vohaning eng katta etnik guruhlardan birini Jaloyirlar tashkil etadi. Jaloyirlarning kelib chiqishi mo'g'ul qabilalariga borib taqaladi. Rashididdin

¹ Кармышова Б.Х. Ўша аср. 94-95 бетлар.

jaloyir qabilasining tarkibida quriqin (bo'ri), tulangut, turi etnonimlarini tilga oladi. Bu etnonimlar esa turkiy qabilalar ekanligi manbalarda qayd qilinadi¹. Vohada uzluksiz davom etgan etnik jarayon Jaloyir² etnik guruhini ham qamrab olgan edi. Jaloyir elini Qayduxon³ (Chingizxonning ettinchi bobosi Dutumnaxonning to'ng'ich o'g'li) surgun qilganidan so'ng, ular bu hududlarga kelib joylashganlar. Ular yarim o'troq turmush tarzida kun kechirishib, asosan chorvachilik, dehqonchilik va hunarmanchilik bilan shug'ullanishgan. Jaloyir etnik guruhi bugungi kunda asosan Surxon vohasining markaziy qismlarida istiqomat qilishadi. Qumqo'rg'on tumanida jaloyir nomli jamoa xo'jaligi mavjud. Ular Surxondaryoning o'ng tomonida bir necha urug'larni tashkil etishadi.

Yuz urug'i qo'ng'iroq urug'i kabi o'zbek elatining eng katta urug' va qabilalaridandir. X. Doniyorov «O'zbek xalqining shajara va shevalari» kitobida yuzlarning uch guruhini keltirib o'tadi: qarapchi, marqa bolasi, rejab bolasi. Albatta X. Doniyorov Toshkent, Sirdaryo va Samarqand viloyatlaridan olingan ma'lumotlar asosida yuzlarning uch guruhini keltirib o'tgan. Surxon vohasida yuzlarning asosan qarapchi hamda turkman yuz urug'lari yashaydi. Ular asosan Sho'rchi, Oltinsoy, Denov va Uzun tumanlarida istiqomat qiladilar. Yuzlarning Markaziy Osiyoga kelishi, ijtimoiy turmushi va xo'jaligi xaqida N.A.Aristov, V.V.Bartold, X.Doniyorov, V.I.Lipskiy, N.A.Maev, L.P.Potapov, I.P.Magidovich, B.X.Karmisheva kabi olimlar o'z asarlarida to'xtalib o'tadilar.

B.X.Karmishevaning ta'kidlashicha turkman yuzlarining Surxon-Hisor vohasiga kelishi xaqida uchta fikr mavjuddir: birinchisiga ko'ra yuzlar-qo'ng'iroqlar kabi orqa yurtdan; ikkinchisiga ko'ra ular-ajdodlari yurti O'ratepadan va Nurotadan ko'chib kelganlar. Sohibqiron Amir Temur davrida Surxon vohasida Turkman dashti mavjud bo'lib, rivoyatlarga qaraganda Turkman dasht Amir Temur otasining qo'rg'oni bo'lgan. Amir Temurning beshinchi bobosi Qorachar No'yonga Kesh viloyati suyurg'ol qilinganligi asosida uchinchi fikr ilgari surilgan, ya'ni Sulton

¹ Турон қавмлари. Тузувчи: Зойир Зиётов, кичик энциклопедик луғат. Тошкент, 2008 йил, 66 – бет.

² Дала ёзувлари. 2010 йил, Қумқурғон тумани.

³ Абулғози. Шажарайи турк. Тошкент, 1992 йил, 42 – бет.

Sanjar moziy tomonidan yuzta turkman ko'chirib keltirilgan. Shuning uchun yuz (juz), ya'ni Turkman-yuz deb ataladi. Surxon vohasidagi yuzlar o'zlarini Jizzax va Samarqanddan ko'chib kelganlar avlodi deb ta'kidlashadi. X.Doniyorovning fikricha, samarqandlik yuzlarning -ajdodlari asli Hisor-Ko'lobdan kelgan. 1924 yilgi aholi ro'yxatiga asoslanib I.Magidovich qo'yidagi ma'lumotlarni taqdim etadi. U o'zbek qabilalari orasida «Qirq yuz» degan qabilalar ittifoqini (birlashmasini) ajratib, ularni qandaydir harbiy ma'noga ega bo'lgan qabilalar ittifoqining qoldig'i deb hisoblaydi. I.Magidovich o'z tadqiqotlarida bu ittifoqdagi ba'zi guruhlarini ham ko'rsatib o'tadi. Ular quyidagilar; Marqa (Kofirnigon vohasida), Xitoy-yuz (Qoratog'daryo vodiysida), Qorapchi (Surxondaryoning yuqori oqimida), qirq (Qashqadaryo va Samarqandda) va yuz (Samarqandda). I.Magidovich etnografik hisobot ma'lumotlariga suyanib, «yuz» qabilasini Farg'ona, Xo'jand va Toshkent viloyatlarida ham istiqomat qilishini ta'kidlaydi. Olib borilgan tadqiqotlarimizda bu qabilalar ittifoqini quyidagi ilmiy asoslangan bo'limlarga bo'lib o'rgandik. Qorapchi va Marqadan tashqari, so'rov natijalariga asoslanib, biz yuz qabilasi tarkibiga yana ikkita urug'ni kiritdik; vaxtamg'ali (yoki baxtamg'ali) va jilontamg'ali. O'z navbatida, so'rovlar natijasida bu ikki urug' yana mayda dahalarga bo'linadi.

Yuz-vaxtamg'alilar tarkibiga-kesovli, qoziyoqli, joriq bosh, alifli, bo'gajili, batosh, qaropchi, qozoq urug'lari kiradi.

Yuz-jilontamg'alilar tarkibiga-qarg'a, Iyarchi, ko'sa, bolaxo'r, yo'rg'a, bog'anali, potas va qoratamg'ali urug'lari kirgan.

Qayd etilgan Kesovli va Qoziyoqli urug'lari xususida N.F.Sitnyakovskiy tuzgan o'zbeklarning qo'ng'irot urug'i geneologik jadvalida Qoziyoqli va Kesovli Vaxttamg'ali qabilasi tarkibida, Ko'sa esa Qo'shtamg'ali tarkibida ko'rsatiladi, Qoziyoqli esa, biz yuqorida qayd etganimizdek, Qo'ng'irot qabilasi tarkibida gavdalanadi. I.Magidovichda ham Qoziyoqli Qo'ng'irot qabilasi tarkibiga kiritilgan. Yuz qabilasining mayda guruhlarida ham odamlarning laqabi bo'yicha nomlash odati bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra yuz qabilasi tarkibida qo'yidagi mayda guruhlar yoki laqab bilan aytiladigan urug'-qarindoshlar bo'lgan;

1. Xalfabachcha (ustaga ta'luqli bola, shogird)

2. Yungbachcha (Jun bosgan bola)
3. Saribachcha (sariq bola. Sari kishining bolasi)
4. Ko'sa (soqoli yo'q, besoqol)
5. Bangibachcha (nasha chekadigan kishining bolasi)
6. Kalbachcha (sochi yo'q kishining bolasi, yoki sochi yo'q bola) va hakoza.

Yuz qabilasi to'g'risidagi ma'lumotlar qadimiy manbalarda uchramaydi. Yozma manbalarda na turk, na mo'g'ul qabilalari tarkibida bu qabilalar xaqida fikr yuritilmaydi. Xususan Surxondaryoda qanday paydo bo'lganliklari haqida ham aniq ilmiy etnografik manbalar xozircha to'liq o'rganilmagan. Faqatgina o'zbeklarning yuz qabilasi XVII asrdan boshlab Buxoro, Samarqand, Xo'jand va O'ratepadagi yashagan aholi tarkibida XVII asrdan boshlab yashaganligi ba'zi bir manbalarda qayd etilgan. Qayd etilgan ma'lumotlarga asolanib, tadqiqot va so'rovlar natijasiga tayanib; Yuz qabilasi Surxondaryo viloyatiga Buxoro va Samarqand hududlaridan ko'chib kelib joylashgan deb hisoblash mumkin. Masalan, biz yuqorida eslatib o'tgan Sho'rchi tuman To'la qishloq fuqarosi Ismoilov Xursandning ma'lumotiga ko'ra qachonlardir yuz qabilasi «Qirq yuzdan» ajralib chiqqan va Jizzaxdan ko'chib kelgan. Boshqa dalillarga kelsak, ularning shevasi bizning kuzatuvlarimizga qaraganda, Qo'ng'irotlarning shevasiday, ya'ni ular ham «j» lab gapiradi. Yuz qabilasini antropologik jihatdan o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, ularning irqiy asosida Evropoid irqi yotadi. Ammo ozroq Mongoloid irqi belgilari aralashmasi mavjud. Bu belgilar O'zbek-Turk qabilasida nisbattan ko'proq, ammo O'zbek-Qo'ng'irotlarida nisbatan kam hisoblanadi

Qatag'on urug'i haqida Abdulg'ozixon, B.X.Karmisheva, Muhammad Solih, N.G.Mallitskiy, S.M.Abramzon va boshqalar o'z asarlarida to'xtalib o'tganlar. Abulg'ozixon «Shajarai turk» kitobida Alanquvoni Nurdan uch o'g'il Bukun qatog'on, Buskun cholchi, Buzanjir Munqoqni ko'rdi. Bukun qatag'on qatog'on elining bosh bobosi deb ta'kidlaydi. Qatog'onlar Surxon vohasining Sariosiyo, Denov, tumanlarida ko'pchilikni tashkil etadi. Qatog'onlar Hisor tog' tizmasining Sangardak, Vaxshivor qishloqlarida yashaydilar. Tog'chi qatog'onlar qarapoycha, norbadal, ko'mirchi, ko'ksoy, ajina, butoshiq, isbilmas, xo'yaki oila-qarindosh

urug'larga bo'linadilar. Tog'chi urug'ning ota-bobolari asosan Boysun tog'ining Qizilnavr, Kengdala qishloqlarida istiqomat qilib kelishgan¹. Bugungi kunda tog'chilarning asosiy qismi Jarqo'rg'on tumani Surxon jamov xo'jaligida, Denov tumanining Xazarbog' jamoa xo'jaligida va Boysun tumanining Machay jamoa xo'jaliklarida istiqomat qilishadi.

Sangardak tog'ida Xubon, Changloq, Bog'cha, Tojik qishloq, Dunangi qishloqlari bo'lib, bu hududda yashovchi aholi asosan qatog'on urug'iga mansubdir. Sangirdaklik qatog'onlar o'zlarini Afg'onistonning Qunduz va Balx viloyatlaridan kelganmiz deyishadi. Sangardakliklar qatog'onlarning qaysi dahasidan ekanliklarini bilishmasa-da, o'zlarini bu yerlarga birinchi ko'chib kelgan ota-bobolarining nomini saqlab qolishgan. Ya'ni hozirgi vaqtda kishilarni dahalarga emas, balki avlodlarga bo'lishadi. Aytishlaricha, Sangardakka afg'onistondan Shoxrux Maxsum, Shoxonboy, Shoqosim maxsum kabi kishilar ko'chib kelishgan ekan. Sangardak qishloqlarida yashovchi har bir qatog'on o'z shajarasi (geneologiyasi)ni yuqorida keltirilgan nomlar bilan bog'lashadi.

Qarluqlar Milodiy VI-VIII asrlarda Surxon ham Tohariston tarkibida bo'lib, mavjud aholi o'troqlashgan turkiy qabilalardan iborat guruhlarini o'z ichiga olib, ma'lum qismi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchilikda turmush kechirgan. Bu aholi asosan turk xoqonligi ixtiyorida bo'lib VI asr oxiri VII asr boshlarida Ettisuv va Sharqiy Turkistondan ko'chib kelgan turkiyzabon qarluq Xalach, Chigil qabilalari bilan qo'shilib aralashib istiqomat qilgan. Natijada siyosiy nufuzi ustun bo'lgan qarluq Yabg'ulari Toxaristonda o'z mavqelarini kuchaytirib hokimiyat boshqaruvini qo'lga oldilar. Yabg'u mansabi avloddan-avlodga meros qoldirilib ularga tegin va tarxun unvonlari berilgan. Shu tariqa Surxon vohasida ilk qarluq qabilalarining kelib joylashishiga asos solindi. Qarluqlar Qoraxoniylar turklarning Movarounnahr bo'ylab yurishlarida, shuningdek, ularning davlat boshqarishiga faol qatnashganlar. Tadqiqotlar davrida "Qarluq" qishloq kengashi a'zosi Bozorov Xudoyqul (Turk qabilasiga mansub o'zbek) ta'kidlashicha "Bu yerlar salqin, qor

¹ Дала ёзувлари. 2011 йил ноябр. Жарқўрғон тумани.

ko'p, chunki tog'lar yaqin, shu tufayli bu yerni "Qorliq" deb ataydi-degan fikrni bildirdi¹. Shunga o'hshash yana bir tadqiqot manbasida "O'g'uz o'z xalqi bilan G'ura-G'archistondan o'zning eski yurtiga qaytayotganda yo'lda katta tog' yoniga kelganida qalin qor yog'adi. Natijada ko'plab oilalar qorda yo'lda qolib ketadi. O'g'uz orqaga qaytishni istamay qorda qolgan oilalarni "kimdir qor yoqqani sababli orqada qoladimi?" deb ta'kidlaydi. Shu sababli qorda qolgan bir necha oilaga O'g'uz qarluq nomini beradi; ya'ni "Qorning egasi: Qorliq" degan ma'noni bildiradi. Qarluq qabilasi ana shu odamlardan kelib chiqqan. Bu afsonalar xaqiqatga qanchalik to'g'ri kelishi bizga noma'lum. ehtimol, "Qarluq" qishlog'i o'zoq o'tmishda bu yerlarga kelib qolgan turk-qarluqlar nomini olgandir. O'zbek halqining shakllanishida muhim o'rin egallagan qarluq urug'lari boshqa qabilalar va o'troq mahalliy aholini ham o'z tarkibiga qo'shilishiga ta'sir ko'rsatib "Qarluq turklari" yoki "Xoqonliklar"ni shakllanishiga imkoniyat yaratgan. O'z navbatida "Qarluq" atamasi bir qancha qabila va o'troq aholi uchun etnik nom ham bo'lgan. Qarluq tili ilk o'rta asrlarda vujudga kelgan. Qadimiy turkiy guruhiga kirib IX-X asrlarda tashkil topgan. Qarluq dialekti IX-X asrlarda o'zbek ajdodlarining alohida elat bo'lib shakllangan davriga to'g'ri keladi.

Surxon vohasining Oltinsoy, Sariosiyo va Uzun tumanlarida Qarluqlar yashaydilar. Oltinsoy tumanining Qarluq qishlog'ida 1925 yilda 636 kishi yashab, 120 xo'jalikni tashkil etgan. Sariosiyo Uzun tumanlarida yashovchi qarluqlar XIX asr oxiri- XX asr boshlarida yarim o'troq hayot kechirgan. Ular bahor va yoz oylarida tog'larda o'tov va kapa tikib chorvalarini olib borsalar, kuzda qishlov uchun qishloqlarga qaytganlar. Bu qarluqlar kam bo'lsada dehqonchilik bilan ham mashg'ul bo'lganlar.

Turklar Surxondaryoning shimoliy Sharqiy qismida Sho'rchi, Sariosiyo, Uzun va Denov tumanlarida yashab XIX asr oxirida ham eng yirik qabila-urug'lardan biri hisoblangan. Turklar asosan Surxondaryoning o'rta va yuqori oqimlarida dehqonchilik, qisman savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Turk atamasi

¹ Турсунов С.Н., Пардаев Т.Н. Сурхондарё этнографияси. Ўқув қўлланма. Термиз., 2010 йил, 18 бет

haqida akademik V.V.Bartold quyidagi fikrni ta'kidlaydi «turk» so'zi to'la ma'noda etnik atama emas. Urxun yozuvlarida hamda keyinchalik sharqshunos olimlar A.Yu.Yakubovskiy, A.N.Bernshtam, S.P.Tolstovlar asarida «Turk» so'zi har xil qabilalarning siyosiy birlashmasini anglatadi deb izoh beriladi. Mashhur etnograf olim akademik K.Shoniyo'zov «O'zbek xalqining shakllanish jarayoni» (Toshkent 2001) asarida Turk atamasi 445-yildan manbalarda tilga olinganligini ta'kidlaydi. Ular eftaliylarga qattiq zarba berib, Movarounnahrni egallab, Amudaryo sohillariga chiqqanlar. Turk xaqonligi davrida VI-VIII asrlarda Tohariston hududida 27 viloyat mavjud bo'lib, bular turklar tomonidan idora qilingan. Shundan bittasi Surxon-Sherobod hududiga to'g'ri keladi. Qayd etilgan ma'lumotlarga asoslanib turklar VII-VIII asrlarda Surxon hududlariga kirib kelib, mahalliy o'troq turk qabilalari bilan aralashib muqim joylashganlarini taxmin qilish mumkin¹.

I.Magidovich tomonidan tadqiq etilgan 1924 yildagi ro'yxatga asoslanib Surxon hududidagi uchta turk; Balos (barlos), Muso bozori va Kaltatoy urug'lari borligi qayd etilgan. Dala kuzatuv tadqiqotlariga asoslanib biz ham turk qabilasining uchta urug'ini qayd qildik; Barlos, Kaltatoy va Qarluq. Dala tadqiqotlari bilan I.Magidovich ma'lumotlarini solishtirsak farq bitta urug'dan iborat bo'layapti. I.Magidovich Qarluq (Kalliq) qabilasini «Turk» qabilalari ittifoqidan bo'lak qabila sifatida keltiradi. Tadqiqotlar davomida ko'plab daryo bo'yi aholisi o'zlarini «Turk» ekanligini ta'kidlab so'ngra «Qarluq» so'zini qo'shib aytdi. Bu asosan Oltinsoy tumani Qarluq, Jobu qishloqlariga xos. O'z navbatida Surxondaryo bo'ylarida o'zlarini faqat «Turk» deb ataydigan sof ya'ni urug'larga bo'linmaydigan guruhlar ham mavjudligi aniqlandi². Albatta olib borilgan tadqiqotlar va dala kuzatuvlari asosida Movarounnahrda shuningdek, Surxon hududiga kelib o'rtnashgan bu turklar tarixiy, arxeologik, tilshunoslik va antropologiya ma'lumotlaridan ma'lumki sharqdan, ya'ni Yoyiq, Balxash, Sirdaryo bo'ylaridan kelganlar. Turk kaltatoylar-Surxondaryoning Denov tumanidagi Kenegas qishloq kengashi hududidagi qishloqlarida istiqomat qilishi aniqlanib, olib borilgan tadqiqotlar davomida bu

¹ Турсунов С.Н., Пардаев Т.Н. Сурхондарё этнографияси. Ўқув қўлланма. Термиз., 2010 йил, 19- бет

² Дала ёзувлари, 2011 йил ноябр Олтинсой тумани.

urug'ga oid bir qitor manbalar o'z tasdig'ini topdi. Urug'ning kelib chiqishi, urug'lar o'rtasida kelib chiqadigan o'zaro nizo-janjallar, yer, yaylov, sug'orish ariqlar masalasidagi kelishmovchiliklar natijasida ba'zi birlari urush boshlab bostirib kelsa, ikkinchisi ximoyalanardi. Ba'zan shunday xolatlar bo'lardiki, bir urug' vakillariga ikkinchi urug' vakillarini jang va janjallarda qanday ishtirok etganliklariga qarab nom berganlar. Keksalarning xikoya qilishlaricha Turk kaltatoylar bu janglarda o'zlarining chaqqonliklarini namayon etganlar. Shu sababli ular bir ikki yosh orasida bo'lgan toy nomini oladilar. Bunday yoshdagi toychoqlar «kaltatoy» deb ataladi. Chunki bu yoshda ularni tezroq yugurishlari uchun dumlarini kesib kalta qiladilar. Olib borilgan tadqiqotlar, yig'ilgan ma'lumotlar bu hikoya suhbatlarda xaqiqat borligini, bir qabila-urug' vakillari ikkinchisidan qandaydir bir belgilari bilan yoki xulq-atvori bo'yicha ajaralib turishini tasdiqlaydi. ehtimol «kaltatoy» so'zi turklarning bir qismi boshqa qismiga qo'ygan laqab nomi bo'lishi mumkin. O'tkazilgan dala tadqiqotlari buni ilmiy asoslaydi¹. Tadqiqotlar turk qabilasining ichida mayda guruhlar mavjudligini aniqlashga imkon beradi:

1. Oqsoqbachcha (cho'loq bola)
2. Shoshbachcha
3. Po'latbachcha (Po'lat ismli bola).

Til shevasi lahjalarida bu urug'lar qadimgi xalqlarning tilini turklashtirib yuborganlar va o'zlari ham antropologik jihatdan ancha o'zgardilar. Tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, o'rganilgan turklarning (Qorliq, Barlos, Kaltatoy) irqiy tarkibida asosan O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i irqi yotadi, Mongoloid irqi belgilari aralashmasi esa uncha ko'p emas, ammo bu belgi turk-qarluq va turk kaltatoylariga nisbatan turk barloslarida kuchliroq ifodalangan. Turk-barloslar Surxon vohasining Uzun tumani Jonchekka qishlog'ida istiqomat qilib mashhur tarixchi Rashididdining «Jomiy-at-tavorix» asarida ta'kidlanishicha Chingizxon davrida Barloslar Onon va Kerulen daryosi havzasida yashab, kuchli xarbiy quvvatga ega bo'lganlar. Kubalay Nayon yirik xarbiy sarkada bo'lib istilochilik urushlarida Mo'g'ul armiyasi safida

¹ Турсунов С.Н., Пардаев Т.Н. Сурхондарё этнографияси. Ўқув қўлланма. Термиз., 2010 йил, 20- бет

bo'lgan. Barlos Qorachur No'yon Chingizxonning nufuzli amirlaridan bo'lib Amir Temur ajdodlarining beshinchi (Katta bobosi) bo'lgan. Chingizxon vorislari davrida Barloslarning bir qismi Sharqiy Turkistonga, XIII asrning 60 yillarida Shaxrisabz vohasiga kelib joylashib, ular Amir Temurning qarindoshlari bo'lgan. Rashiddin Barloslarning ilk ajdodlarini turklar bo'lgan, keyin ular Mo'g'ul nomini olgan Nurun qabila ittifoqi tarkibida bo'lganligini tilga oladi. Bu firqni Xitoyshunos olim A.Yu.Zuev tasdiqlab Barloslarni turkiy xalq degan xulosaga keladi. O'zbekistonda jumladan Surxon vohasida yashaydigan barloslar o'zlarini turk-barlos deb ataydilar.

Sharqshunos A.Yu.Yakubovskiyning qayd etishicha «Jaloyirlar va barloslar Ettisuvdan Sharqiy Turkiston Sirdaryo hamda Shimoliy Amudaryo, Toxaristonga til jixatidan ancha-muncha turklashgan xolda keladilar. Yangi hududlarda ular shunchalik turklashib ketdilarki, XIV asrning o'rtalarida ular o'zlarining ona tillarini turk tili deb xisoblay boshladilar. Demak olib borilgan dala tadqiqotlariga asoslanib Surxondagi Barloslar Qashqadaryoning Shaxrisabzi orqali kelib joylashib qolgan deyishga asos bor, chunki mahalliy Barlos urug'i keksalari o'zlarini asli bobolarini Shaxrisabzliklar deb ataydi¹.

Surxon vohasida oz sonli o'zbek urug'-qabilalar jumlasiga do'rmon, kenegas, qovchin, qutchi, turkman, qoratamg'ali kabi urug'-ellarni kiritish mumkin. Tadqiqotlar davomida ular haqida ham ma'lum ma'lumotlarga ega bo'lindi. 1924 yilgi aholi ro'yxatida bu qabilalar xaqida qisman to'xtalib o'tilgan.

Shuni inobatga olish lozimki, etnotoponimlarga asos bo'lgan etnonimlarning ko'p qismi XX asr boshlariga qadar ham Surxon-Sherobod vodiysi hududida mavjud bo'lgan bo'lsa, bir qismi faqatgina etnotoponim tarzida mavjuddir. Masalan, *qang'lining darasi*, *nayman dasht* kabi etnik nomlar bilan ataluvchi joy nomlari mavjud. Ammo dala tadqiqotlarimizda hamda ilmiy tadqiqotlarda o'zini qang'li yoki nayman etnik guruhiga mansub deb biluvchi kishilarning yashashi eslatib o'tilmagan. Shubhasiz, bu etnonimlarning aynan shu joyda toponimik shaklni olishi tasodifiy hol bo'lmasa kerak. Qachonlardir bu etnik guruhlar migratsiya

¹ Турсунов С.Н., Пардаев Т.Н. Сурхондарё этнографияси. Ўқув қўлланма. Термиз., 2010 йил, 20-бет

bo'lgan va ma'lum muddat yashab, qandaydir tarixiy, ijtimoiy-siyosiy sabablar bilan emmigratsiya bo'lganlar va bu yerda o'z nomlarini qoldirganlar. Yoki qandaydir boshqa etnik guruh tarkibiga singib ketganlar.

Shuningdek, qang'li etnonimining qatag'onlar tarkibida uchrashi hamda ularning quyushqonli, boyteke, burmali, orishli nomli geneonimlarini qang'lilar tarkibida ham ko'rishimiz mumkin¹. Demak, yuqorida qayd qilingan etnotoponimik fakt (qang'li etnotoponimi) hamda qang'lilarning ayrim guruhleri garchi boshqa etnik guruhlar tarkibida bo'lsa ham XIX asr oxiri - XX asr boshlarida biz tadqiq etayotgan hududda yashagan, degan to'xtamga kelishga imkon beradi. Surxon-Sherobod vodiysining etnotoponimik qatlamida bu kabi ma'lumotlar talaygina va biz tadqiqotda ularga o'z o'rnida to'xtalib o'tamiz. Ba'zi tarixiy-ilmiy adabiyotlarda Termiz tumani hududlarida XVIII asrda naymanlarning qo'ng'irotlar bilan birga yashaganligi haqidagi ma'lumotlar mavjud².

Denov bekligi hududida Sangardak daryosining quyi oqimida Arg'un qishlog'i mavjud. Bu joy nomining ham etnonim ekanligi ma'lum. Arg'inlarning katta bir qismi VII asrda Ettisuvga kelib o'rnamshadi. X asr oxiri – XI asr boshlarida Ettisuvda joylashgan arg'inlarning salmoqli qismi Toshkent vohasiga va Farg'ona vodiysiga kelib yashaydilar. Qoraxonlar davrida (X-XII asr) ularning ayrim guruhleri hozirgi Surxondaryo viloyatining bir necha tumanlariga kelib o'rnamshadilar³.

¹ Шониёзов К.Ш. Қанғ давлати ва қанғлилар. 6-143. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. М., 1976 С. 105.

² Қаранг: Гребенкин А.Д. Узбеки // СРТ. Вил п 2. 1872. С. 81. Материалы по районированию Средней Азии. Терретория и население Бухари и Хорезма. Бухара. Кн 1. ч. 1.. С. 274. таб. Сариосиё кентида найманлардан 9. 100 киши борлиги аниқланган.

³ Шониёзов К.Ш. Ўзбек халкининг шаклланиш жараёни. Т.: 2001. Б. 395.

II BOB. SURXON VOHASI AHOLISINING ETNIK TARKIBI.

2.1. Vohadagi o'zbek etnik guruhlarining xududiy joylashuvi.

O'zbekiston hududida qadimgi davrlardan ko'plab etnik guruhlar migratsiya sababli joylashib, mahalliy aholi bilan etnik madaniy munosabatlarda bo'lganlar. Ularning ko'pchiligi vaqt o'tishi bilan o'troq aholiga aralashib etnik nomlarini unutib yuborganlar. Lekin ayrim etnik guruhlarining nomlari ular yashagan joy nomlariga o'tib qolgan. Turli etnik guruhlarini ma'lum bir hududda uzoq yashab, bu joylardan ko'chib boshqa mintaqalarga borib joylashib qolish hollari ham bo'lgan. Shunga qaramay ularning etnik nomi avvalgi yashagan joylarida uzoq vaqt mobaynida saqlanib qolavergan. K.Shoniyozovning yozishicha, Dashtiqipchoqdan Mavaraunnaxrga ko'chib kelgan etnoslarning hammasi ham ko'p sonli bo'lavermgan. Ularning ayrimlarigina, masalan, qipchoq, saroy, qo'ng'iroq, yuz,

ming, nayman, mang'itlar boshqalarga nisbatan yirik etnik guruh hisoblangan. Mazkur etnoslar ichida eng ko'p sonlisi qipchoqlar edi¹. XVII asr oxiri – XIX asr boshlarida qipchoqlar 270 ming atrofida bo'lgan². Ta'kidlash joyizki Dashtiqipchoq ko'chmanchi qabilalarining hammasi ham Mavaraunnaxrga ko'chib kelmagan³. Aynan shu davrdan e'tiboran Surxon vohasiga ham ko'plab turkiy guruhlarining kirib kelishi kuzatiladi. Surxon vohasining o'ziga xos tabiiy iqlimi etnik jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Uning mo''tadilligi, bahor faslining erta kelishi, yoz faslining uzoq davom etishi va qish faslining iliqroq kelishi etnik guruhlarining voha bo'ylab keng joylashuvi imkoniyatini yuzaga keltirgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Sharqiy Buxoro tarkibida bo'lgan Surxon vohasi aholisi uch qatlamni tashkil qilgan. Ularning birinchisi urug'-qabilalarga bo'linmaydigan, ya'ni "chig'atoylar", "xo'jalar" va "qarshiliklar" dan iborat bo'lgan bo'lsa, ikkinchisi qadimgi urug'lar, ya'ni mo'g'ullar istilosiga qadar xududda yashagan va mo'g'ullar bilanbirga kelgan – turklar, kaltatoylar, "tog'chilar" ni birlashtirgan. Dashti-qipchoqdan XV asr oxirida Shayboniyxon davrida va undan keyin XVI asr boshida kelib joylashgan qo'ng'irotlar, do'rmonlar va boshqa ko'plab o'zbek urug'lari uchinchi guruh tarkibiga kirgan.

Sheroboddaryo xavzasida yashagan o'zbek chig'atoylari asosan uch xududda; daryoning boshlanish, ya'ni yuqori qismida (Yuqori Machay qishlog'ida turklar va xardurilar), daryoning o'rta oqimi atrofida (Laylagon, Qorabog', Poshxurd qishloqlarida) va Sherobod vohasida (Seplon, Chig'atoy, Novbog', Gegirdak, Cho'yanchi va boshqa qishloqlarda) istiqomat qilishgan⁴.

Surxondaryoning quyi oqimidagi: Manguzar, Sallaobod va Chig'atoy qishloqlari o'zbek-chig'atoylaridan iborat bo'lgan. Poshxo'rd vodiysidagi o'zbek xo'jalari asosan, Zarabog', Qorabog' va Poshxo'rd qishloqlarida yashashgan⁵.

¹ Шониёзов К. Ўзбек халкининг шаклланиш жараёни. Тошкент., 2001. 41-бет

² Шониёзов К. К этнической истории узбекского народа. Тошкент., 1974. 110-бет.

³ Аскаров А. Ўзбек халкининг этногези ва этник тарихи. Тошкент., 2007. 275-бет.

⁴ Турсунов Н. Жанубий Сурхон аҳолисининг этник хусусиятлари.(XIX аср охири – XX аср бoshлари). Афтореферат. Тошкент., 2007.

⁵ Ўша жойда...

O'tgan asr boshlarida voha aholisi asosan Surxondaryo, Sherobodaryo va uning irmoqlari bo'yida joylashgan edi. etnik guruhlarining bunday xududiy joylashuvlari bugungi kungacha deyarli o'zgargani yo'q. Sherobodaryoning yuqori qismida Qizilnavr, Kegdala, O'rikli qishloqlarida qatog'on etnik guruhining tog'chi urug'i joylashgan. Karmishova tog'chi urug'ini vohadagi qadimgi aholi toifasiga kiritadi. Ularning antropologik xususiyatlaridan kelib chiqib, mongoloid irqiga yaqinroq deb ta'kidlaydi¹. Bundan tashqari tog'chilarning katta qismi Jarqo'rg'on tumani Surxon jamoa xo'jaligida, Denov tumanining Xazarbog' jamoa xo'jaligida va Muzrobod tumanlarida istiqomat qilishadi. Umuman olganda tog'chilar qorapoycha, ajina, norkal, bo'tashshig', xo'yaki, ko'mirchi kabi bo'g'inlarga bo'linadi². Ular asosan chorvachilik, bog'dorchilik va qisman dehqonchilik bilan shug'illanib kelishadi³.

Turk, kaltatoy va barloslar o'zganilayotgan xududda kamchilikni tashkil etadi. Turklarning kasonli guruhlari Sherobod vohasida, Boysun tog'laridagi qishloqlarida tarqalganlar. Kaltatoylar asosan Sangardak va Obizarang daryolari oralig'idagi qishloqlarda, Yurchi aholi punktida va quyi Sherobodaryo vohasidagi Oqqo'rg'on qishlog'ida joylashganlar. Barloslar esa yuqori Surxondaryo vohasidagi Dashnobod, Quduqli, Shoqishloq va Qorabandi kabi qishloqlarda yashaydilar⁴.

Surxondaryo xavzasida, ayniqsa uning yuqori qismida o'zbek va tojik tilli jig'atoylarning ko'plab qishloqlarini uchratish mumkin. Ular tog'li xududlarda joylashgan Dug'oba, Luchchak, Dibolo, Sangardak, Xubon, Xafar, Sina, Sariosiyo, Yurchi kabi aholi punktlarida yashaydilar. Shu bilan birgalikda Denov shahrida va undan g'arbda Katta Vahshuvor va Kichik Vahshuvor qishloqlarida boshqa etnik guruhlar bilan aralash holda tarqalgan.

Surxondaryoning o'rta va yuqori qismlaridagi aholi punktlarida yashovchi tojik tilli chig'atoylar o'ziga xos ikki guruhga bo'linadi. Ulardan biri o'zini shu

¹ Кармышова Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. Москва., 1976. 196-197-бетлар.

² Дала ёзувлари. 2012 йил, март. Жарқўрғон тумани, Сурхон жамоа хўжалиги, “И. Туранов” маҳалласи.

³ Дала ёзувлари. 2010 йил июн ойи. Бойсун тумани, Кенгдала қишлоғи.

⁴ А.Қаюмов. XIX аср охири – XX аср бошларида Сурхон – Шеробод водийсидаги этник жараёнларнинг баъзи омиллари. //Ўзбекистон тарихи журнали. 2001 йил. 4-сон.

yerni turg'un aholisi deb hisoblaydi va tog'li joyda yashaganliklari sababli "ko'xistonliklar" deb ataladi. Ikkinchi guruh esa o'zini turli joylardan kelib qolgan deb hisoblaydi va "viloyati" deb ataladi.

Qarluqlar esa Sho'rchi tumani, ya'ni Surxondaryoning Qarluqdaryo nomli irmog'i bo'yida tog' yaqinidagi Qarluq qishlog'ida joylashgan. K.Sh.Shoniyozov ta'kidlab o'tganidek, qishloq aholisi turg'un hayot kechirgan va bu yerga qachon kelib o'rnamashganliklarini bilishmaydi¹. Sariosiyo va Uzun tumanlaridagi Qarluqlar besh yuz uyli Qarluq bo'lib, ular Cholmiyon, Nelova, Boyqishloq, Sarimozor, Tog'chiyon, Ko'lmozor, Buyrapush, Fozilko'chdi qishloqlarida yashaganlar. Oltinsoy tumanidagi Qarluq qishlog'i Ipoq daryosi sohilida joylashgan. Shu boisdan, bu qarluqlarni Ipoq qarluqlari ham deyishadi. Ipoq qarluqlari XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'troq xayot kechirib asosan dehqonchilik hamda qisman chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Ipoq qarluqlari antropologik, lingvistik hamda urf-odatlarini jihatidan Muborak tumanida yashovchi qarluqlarga o'xshaydilar.

Surxon voxasida xududiy jihatdan juda keng joylashgan etnik guruhni qo'ng'irotlar tashkil etadi. Qo'ng'irotlar butun voha bo'ylab keng tarqalgan va bu yerda aholining ko'pchiligini tashkil etadi. Ular Boysundaryo, Sherboddaryo havzasi Amudaryo va Surxondaryo bo'yidagi aholi punktlarida tarqalganlar. Qo'ng'irotlar vohaning shimoli va janubi g'arb tomonlarida ayniqsa zich joylashgan. Ularning xo'jaligida chorvachilik etakchi o'rinda turadi. Karmishovanning qo'ng'irotlardan yozib olgan ma'lumotiga ko'ra, ularning ajdodlari Ko'xitang tizmasining har ikki tomonidagi dasht va adirliklarda yashagan. Keyin ular asta-sekinlik bilan g'arb va sharqqa yoyilib, Sherobod vohasi va Boysuntog' tizmasining tog' oldi adirliklarini egallaganlar. Qo'ng'irotlar asosan chorvador xalq bo'lganligi tufayli asosan tog' xududlarda istiqomat qilishib kelishgan. Hozirgi kunda vohaning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan yuz etnik guruhi qo'ng'irotlarni bu xududlarga o'tishiga qarshilik ko'rsatishgan. XIX asr oxirlariga kelib qo'ng'irotlar asosan Surxon vohasining shimoliy-g'arbiy xududlariga

¹ Шониёзов К.Ш. Карлук давлати ва қарлуқлар. Тошкент., 1999. 151-152-бетлар.

mustahkam joylashadilar va bu xududda ular hozirgi kungacha istiqomat qilib kelishmoqda¹.

Yuzlar Surxon vohasining yuqori va o'rta qismida qo'ng'irotlarga bevosita qo'shni bo'lib yashaganlar. Vohada yuzlarning yirik bo'linmasi turkman-juzlar ham keng tarqalgan. Yuzlar vohadagi salmoqli etnik guruh hisoblanib, bir necha urug'larga bo'linishadi va bu urug'lar alohida xududlar bo'ylab joylashganlar. Yuzlarning Alifli urug'i Jindibuloq (Oltinsoy tumani)da, Kesovli urug'i Obodon, Tolli (Shurchi tumanida), hamda Hazarbog' (Denov tumani)da, Joriqbosh urug'i Yalti va Sovjironda, Qozoq urug'i Mirishkor va Olatemirda, Ko'stangg'ali urug'i Kultepada. qozoyoqli urug'i Xo'jasoat, Qumpaykal, To'xtamish, Lo'kka qishloqlarida, (Oltinsoy tumanida) Bo'gajili urug'i Hayrabod (Denov tumani)da va boshqa hududlarda yashaydilar².

Jilontangg'alilarning Ko'sa urug'i To'la, Olatemir (Sho'rchi tumani), Paxtakor, Ikkiraz, Degrez (Oltinsoy tumani) Iyarchi urug'i Oxunboboev, Patos urug'i Xidirsho, Dug'oba, Ikkiraz, Mormin, Sayrak, Qoratepa, Jolti, Mo'minqul (Oltinsoy)da, Bolaxo'r urug'i A.Safarov (Sho'rchi tumani)da, Sayrak (Oltinsoy tumani)da Qarg'a urug'i Tolli shirkat xo'jaligida, Yo'rg'a urug'i Ijtimoiyat shirkat xo'jaligida, Bog'onali urug'i 8-mart shirkat xo'jaligi (Denov tumani)da, Boshtepa (Sho'rchi tumani)da, Qoratangg'ali urug'i Regar atroflarida yashaydilar.

Yuzning katta urug'laridan yana biri bu qarobchi urug'i bo'lib, qarobchilar Oltinsoy tumanining Obshir, Chuqur Obshir, Jobu, Degrez, Ovchi, Zardaqo'l, To'xtamish, Chinor, Bodihavo qishloqlarida, Sho'rchi tumanining Oxunboboev jamoa xo'jaligi, Denov tumanining Oxunboboev jamoa xo'jaliklarida yashaydilar. Qarobchilar bir necha urug'ga bo'linib: gardon, chichqoq, xolmat, ko'kan, ashurbek, jahastubi, gadoyxo'ja urug'larini tashkil qiladilar. Qarobchilarning Surxon vohasiga kelishini So'fi Ollayor eshon bobo bilan bog'laydilar. Qarobchilar So'fi Ollayor eshon bobo bilan Kattaqo'rg'ondan birga kelishgan.

¹ Дала ёзувлари. 2011 йил ноябр. Бойсун тумани.

² Дала ёзувлари. 2011 йил декабр. Денов тумани

Do'rmonlar Bobotog'ning shimoliy qismida va sobiq Sherobod bekligi xududlarida hozirgi Qumqo'rg'on va Sho'rchi tumanlarida kengroq joylashganlar. Ularning xududiy joylashuvlari Surxondaryoning o'ng qirg'oqlari bo'ylab davom etgan va Bobotog' tizmalarigacha bo'lgan dashtlik qismini o'z ichiga oladi. Undan tashqari do'rmonlar Sariosiyo, Denov, Sho'rchi, Termiz, Sariosiyo tumanlarida, turklarning vakillari Denov, Sariosiyo tumanlarida, qisman Machay qishlog'i (Boysun tumani) va Boysun shahrida, qarlular nisbatan ozroq bo'lib, Sho'rchi va Sariosiyo tumanlarida (Toxchiyon, Boyqishloq, Sarimozor, Qarlui qishloqlarida), Barloslar (bular ham son jixatdan oz) esa Sariosiyo, Denov tumanlarining ayrim qishloqlarida yashaydilar¹.

Ular asosan lalmi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Jaloyirlar do'rmonlar bilan xududiy jihatdan yonma-yon joylashganlar. Jaloyirlar Surxondaryoning o'rta o'ng qirg'og'ida joylashgan Jaloyir qishlog'ida yashaydilar.

2.2. Vohada boshqa etnik guruhlarining joylashuvi.

Tarixiy taraqqiyot davomida etnik guruhlarining tarkibi o'zgarib borgan. etnomadaniy aloqalar va turli xil sabablarga ko'ra etnik guruhlar o'rtasida o'zgarish bo'lib kelgan. Jumladan, Surxon vohasida mavjud o'zbek urug'lari tarkibida ham etnik o'zgarishlar bo'lib kelgan. Surxon vohasida arablar, eroniylar, lo'lilar, afg'onlar, turkmanlar, tojiklar yoki tojik tilida so'zlashuvchi etnik guruhlar va ilgari yoki ma'lum vaqtlar davomida kelib qolgan ruslar, qirg'izlar, qozoqlar va yaxudiylar kabi etnik guruhlarining bir qancha vakillari ham tarqalgan. Vohadagi bu etnik guruhlarining ta'siri kuchli sezilmasada o'zaro etnomadiy jarayonlarni yuzaga keltirgan.

O'rta Osiyoning boshqa xududlaridagi kabi Surxon vohasida ham arablarning keng ko'lamda joylashuvini ko'rishimiz mumkin. Antropologik jihatdan arablar o'z xususiyatlarini yo'qotishmagan. Faqatgina mahalliy aholi bilan aralashib, urf-odatlar

¹ А.Қаюмов. XIX аср охири – XX аср бошларида Сурхон – Шеробод водийсидаги этник жараёнларнинг баъзи омиллари. //Ўзбекистон тарихи журнали. 2001 йил. 4-сон

umumiy bo'lib ketgan. Voha arablari tojik va o'zbek tillarida so'zlashadi. Arablar kichik-kichik qismlarga bo'linib, o'rganilayotgan xududning janub qismida ko'pchilikni tashkil etishadi. Arablar xududiy joylashuvlaridan kelib chiqishib xo'jalik mashg'ulotlarini yuritishgan. Va o'zlari istiqomat qilayotgan qishloq yoki xudud nomi bilan atalgan. Masalan, vohaning Sariosiyo va Uzun tumanlarida Qabadiyon arablari ko'pchilikni tashkil etishib, ular asosan chorvachilik, jumladan, qo'ychilik bilan shug'ullanishgan. Ular ko'p hollarda tojik tilida so'zlashishadi¹.

Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan Sherobod bekligidagi Rabatak manzilgohidagi arablarning katta qismi rabatak arablari deb atalgan. Mazkur manzilgoh uch qismdan iborat bo'lgan: Jamal, Boy va Sara. Rabatakda qadimdan uch yuz uyli arablar istiqomat qilib kelishadi. Undan tashqari Sheroboddagi Taraqli va Balxi qishloqlarida ham arablar istiqomat qilishadi². Hozirgi Sherobod tumanining 3-6 bo'limlarida ham arab etnik guruhlar istiqomat qilib kelishadi. Vohadagi Shamal qishlog'idagi arablar beshkal, xo'rasani, zombirto'dava shamshilli kabi urug'larga bo'lingan³. Rabatakning Boy va Sara qishloqlarida arablarning galabotir, galatentak va galadevona deb nomlanuvchi guruhlar joylashgan. Ayvaj qishlog'ining aholisi esa mullaguli, korabegi, sherjon va moxibi deb nomlangan. Sherobod tumanida sherjoniylar nomli arab etnik guruhi katta nufuzga ega⁴.

Arablarning kichik guruhlar Jarqo'rg'on, Denov tumanlari va Termez shaharlarida ham joylashganlar. Bu guruhdagi arablar asosan o'zbek tilida gaplashadilar. Surxon jamoa xo'jaligining I.Turanov, Kunchiqish va Markaz mahallalarida o'zbek tilida so'zlashuvchi arablar ancha salmoqli. Bu xududda ular asosan dehqonchilik bilan shug'ullanishadi. Ular tuzilishi jihatidan arab antropologiyasini saqlab qolishgan bo'lsalarda, voha urf-odatlariga moslashib ketishgan⁵.

¹ Дала ёзувлари. 2011 йил декабр. Жарқўрғон тумани, Сурхон жамоа ҳўжалиги.

² Кармышова Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. Москва., 1976. 112-бет.

³ Ўша жойда... 113-бет.

⁴ Дала ёзувлари. 2011 йил, ноябр, Шеробод тумани.

⁵ Дала ёзувлари. 2011 йил, декабр, Жарқўрғон тумани.

Surxon vohasi etnik guruhleri tarkibiga tojik tilli mo'lonilar ham kirgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida vohada ham kelgindi ham mahalliy mo'lonilar mavjud bo'lgan. Ular jo'gi va tavoqatarosh guruhlariga bo'lingan. Vohada asosan jo'gi guruhi ko'pchilikni tashkil etadi. 1924 yilda mo'lonilar qorator lo'li nomi ostida faqatgina Sariosiyo va Sho'rchi tumanlarida 1418 kishini tashkil etgan. 1926 yilgi aholini ro'yxatga olish natijasida shu narsa ma'lum bo'ladiki, ular Hisor vodiysida va Surxon vohasining shimoliy qismida yashagan. Ular yuz xo'jalik va mingga yaqin odamga ega bo'lgan. Mo'lonilarning ko'chib kelgan guruhleri esa asosan afg'onlar tarkibiga kiritilgan¹.

Etnograf olim I.M.Oranskiyning tadqiqotlariga ko'ra ko'chmanchi xissorlik jo'gilarning xududlari Surxob vohasidan to Denov tumanigacha cho'zilgan. Biroq bu guruh mo'lonilar Xisor tumanini o'zlarining vatani deb hisoblashadi. Negaki u yerda mo'lonilar urug'ining qabristoni joylashgan.

Surxon vohasidagi Jarqo'rg'on tumani va Termiz shahrida mo'lonilarning ko'pchiligi istiqomat qilishadi. Yuqorida aytib o'tilgandek, mo'lonilarni mahalliy aholi jo'gilar deb nomlashadi. Ular asosan butun voha bo'ylab, tilanchilik bilan kun kechirishadi².

Surxon vohasi etnik guruhleri tarkibida turkman aholi vakillari ham mavjud. Ular asosan vohaning shimoliy-g'arbiy qismida ko'pchilikni tashkil etadi. Turkmanlar vohaga xududiy jixatdan yaqinligi tufayli bir necha kichik guruhleri mavjud. 1926 yilgi aholini ro'yxatga olish jog'ida Termiz tumanida turkmanlardan 3825 kishi kiritilgan. Turkmanlarning vohada sariq, ersari, turkman-shixlar kabi etnik guruhleri ko'pchilikni tashkil etadi. Voxaning Pattakesar qishlog'ida shixlar istiqomat qilishgan bo'lsalar, Uchtut qishlog'ida ersarin urug'i ancha salmoqli bo'lgan. Bundan tashqari turkmanlarning ersari urug'i Termiz tumanniing Xalqobod jamoa xo'jaligida ham istiqomat qilishadi. Faqatgina katta judjantal qishlog'ida

¹ Кармышова Б.Х. Кўрсатилган асар... 114-бет.

² Дала ёзувлари. 2012 йил март, Жарқўрғон тумани.

turkmanlar o'zbek tilli chig'atoylar bilan birgalikda istiqomat qilishgan¹. Termiz shahrida turkman mahallalari mavjud.

Surxon vohasiga qozoqlar asosan Xizor va Boljuvon beklilari orqali kirib kelishgan. Ular chorvador aholi bo'lishganliklari tufayli Surxon vohasining tog'li qismlarida chorvachilik bilan shug'illanishgan. Xususan N.Fevralevning ma'lumotida oday, olim, baliqchi va tabin urug'iga mansub bo'lgan qozoqlarning 800 yurti tilga olinadi. Sariosiyo va Uzun tumanlarida qozoqlarning aholi punktlari mavjud. Ularning ko'pchiligi asosan o'zbek tiliga yaqin tilda so'zlashadilar. Qozoqlar chorvador aholi bo'lganliklari bois, ularning aniq hisobi bo'lmagan. Faqatgina baliqchi va kambag'allashgan qozoqlar soni 1924 yilda 490 nafarni tashkil etganligi ma'lum². Hozirgi kunda qozoqlar mahalliy lashib ketishgan. Ular chorvador etnik guruh bo'lganliklari tufayli voha etnogneziga katta ta'sir ko'rsatishmagan. Qozoqlar bilan bir qatorda oz miqdorda bo'lsa ham qirg'izlarning kirib kelishini ham kuzatish mumkin. Surxon vohasida qirg'iz-qishloqlari mavjud.

Surxon vohasining Rossiya tarkibiga kiritilishi natijasida vohaga ruslar bilan birga boshqa etnik guruhlar ham kirib kelishdi. Chor hukumati O'rta Osiyoga inglizlarning kirib kelishining oldini olish uchun dadil harakatlar boshlaydi. Ayniqsa, Buxoro amirligining janubiy sarhadlari, xususan, Termizni egallashga alohida e'tibor beradi.

Rossiyaning Turkistonga istilosi arafasida Surxon vohasi Boysun, Sherobod va Yurchi beklilklaridan iborat bo'lib, bu zamin Buxoro amirligining «Sharqiy yerlari» yoki Sharqiy Buxoro deb atalgan. Chor Rossiyasi bilan Buxoro amirligi o'rtasida 1873 yil 28 sentyabrda shartnoma tuziladi. Shartnoma 17 moddadan iborat bo'lib, uning 3moddasida: «Buxoro amirligiga qarashli Amudaryo qismida Buxoro kemalari va rus paroxodlari, shuningdek, boshqa flot kemalari qatorida hukumat hamda shaxsiy kemalarga erkin suzishga ruxsat beriladi» deyilsa, 4 moddasida: «Kerak va qulay bo'lgan Amudaryoning Buxoro qirg'oqlarida ruslar o'zining to'xtash joyi va tovar omborlari qurishga haqlidir», deb yozilgan edi.

¹ Кармышова Б.Х. Кўрсатилган асар... 118-бет

² Кармышова Б.Х. Кўрсатилган асар... 118-бет

1888 yil 23 iyunda imzolangan qo'shimcha shartnomaga binoan uning moddalari qayta ko'rib chiqiladi va rus fuqarolari Yangi Buxoro (hozirgi Kogon), Chorjo'y, Karki shaharlarida yashashlari mumkin, deb topiladi. Bundan tashqari mazkur protokolga ko'ra, asosan Amudaryo qirg'okdari bo'ylab rus manzilgoxdari barpo etish ko'zda tutiladi. Xuddi shu vaqtda Termizning Amudaryo qirg'og'iga tutashib ketadigan Pattakesar qishlog'i yonida ruslar istiqomat qilishi uchun yashash joylarini barpo etish boshlangan edi.

Bu davrda qadimgi Termiz atrofida uncha katta bo'lmagan, ya'ni taxminan 1257 kishilik aholiga ega Pattakesar va Solihobod qishloqlari borligi qayd etiladi. 1893 yil 15 yanvardagi Rus-Buxoro shartnomasiga binoan Termiz shahri Rus podshosiga «sovg'a sifatida in'om etiladi». Shundan keyin bu yerga chegara okrugiga kiruvchi rus harbiy qismlarini joylashtirish ishlari boshlab yuboriladi. 1894 yilda Termiz qal'asi qurilishi va unda rus qo'shinlarining joylashtirilishi tufayli Termizda telegraf liniyalari tortiladi. Chor Rossiyasi Chorjo'y, Buxoro, Qarshi, Termiz, Kalif garnizonlari bilan aloqa yo'llarini tiklaganlari holda uning Buxoro amirligi uchun zarurligi bilan mutlaqo qiziqmaydilar¹. Natijada Buxoro amirligining savdo-sotiq yo'llari asta-sekinlik bilan bo'lsada, izdan chiqa boshlaydi. Amudaryo soxilida rus harbiylari qal'asining qurilishi munosabati bilan chor hukumati 1900 yilda Termiz Samarqand yo'lini ta'mirlaydi.

1894 yil 24 iyulda chor Rossiyasining siquvi hamda Buxoro amirligining Bojxona ittifoqiga qo'shilishi, bilan Termizni rus harbiy manzilgoxlaridan biriga aylantirish ishlari yanada tezlashib ketadi. Shu vaqtning o'zida Karki, Kalif, Pattakesar, Ayvonch, Saroy bojxona punktlari va Chubek hamda Bog'ariq o'tish chegara joylari ham tashkil etiladi. 1894 yil 12 dekabrda Termiz xarobalaridan 8 km narida Surxondaryoning Amudaryoga quyilish irmog'ida kema to'xtashi uchun qulay bo'lgan Pattakesarga Amudaryo chor harbiy chegara qo'shinlari kelib joylashadi. Chor qo'shinlari Pattakesar qishlog'iga kelib tushib daryodan 2 km yuqorida qal'a quradi, tub yerlik aholi unga «Tuproqqo'rg'on» deb nom beradi.

¹Турсунов С.Н., Пардаев Т.Р. Сурхондарё тарихи. Термиз. 2010. 101-бет.

Pattakesarga kelgan chor qo'shinlari besh yo'nalish bo'yicha kuzatuv nazoratini o'rnatishadi¹.

Akademik V.V. Bartoldning qayd etishicha, 1900 yidda ruslar joylashib olgan Pattakesar shaharcha aholisi 8.052 nafar erkak va 2.069 nafar ayoldan tashkil topgan. Ya'ni aholining asosiy qismi rus harbiy kishilaridan iborat bo'lib, ruslar yangi Termiz shaxrida o'mashib olib, uni Rossiya manfaatlariga mos keluvchi siyosiy va harbiy markazga aylantirishga harakat qila boshlaganlar.

Termizda qurilish ishlari 1895 yilda boshlanadi va shaharni o'z qo'lida saklab qolish uchun mustamlakachilar zudlik bilan 1897 yil iyunida salavotlik aka-uka Sayid Olim va Sayid Ali xo'jalardan 43 desyatina (1 desyatina 1,09 *ga* teng) yer sotib oladi. Bundan tashqari Pattakesar shimolidan 1200 desyatina yer sotib olinadi. Sotib olingan yerlarda harbiylar uchun turar joylar, «Ofitserlar uyi», kasalxona, otxona, qurolyaroq, oziqovqat omborxonalari quriladi. Termizda rus istehkomlari Amudaryo sohili bo'ylab quriladi².

Chor hukumati Termizga harbiy qal'a sifatida katta e'tibor bersada, tub erlik aholining ijtimoiy ahvoli mutlaqo e'tibordan chetda qolgan edi.

Sherobod vohasi yerlarini egallab olish, katta paxta monopoliyasini vujudga keltirish maqsadida ko'plab mutaxassislar jalb etiladi. Ayniqsa, harbiy muhandis A. G. Ananov bu borada bir qator ishlar qiladi. U o'zining «Sherobod vohasi yerlarini Surxon suvlari yordamida sug'orish» asarida minglab odamlarning yashashi uchun qulay sharoitlar mavjudligini madaniy ahamiyatdan tashqari, Sherobod dashtlarini sug'orish Rossiya davlati uchun muhim iqtisodiy qimmatga ega ekanini ham ta'kidlaydi. U, jumladan, quyidagilarni yozadi:

«1) Harbiy nuqtai nazardan, Termizda joylashgan otryadlarning strategik holatini yaxshilaydi, zero, ular gullayotgan hududda joylashib olib, o'zlarini oziqovqat va ishchi kuchlari bilan ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladilar va safar uchun zarur vositalarni ham topadilar;

¹ Турсунов С, Қобилов Э, Пардаев Т, Буртозов Б. Сурхондарё тарих кўзгусида. Тошкент. 2008. Б-119.

² Кўрсатилган асар...120-бет.

2) Iqtisodiy tomondan, Rossiyada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sotish uchun muhim bozor yaratiladi, rus bozori esa bir million puddan ziyod paxta tolasiga ega bo'ladi. Bu esa bizni Amerikaga qaramliqdan ozod qiladi, paxtadan tashqari muhim strategik ahamiyatga ega temir yo'l qurilishini mablag' bilan ta'minlashga imkoniyat yaratadi;

3) Tabiiy sharoitga ta'siri nuqtai nazaridan, tropik iqlimi, shubhasiz, yaxshilanadi, bu esa o'z navbatida hududdagi sanitariya holatining yaxshilanishiga olib keladi;

4) Mahalliy ahamiyati: Termiz sug'orish tizimining zaif tomonlarini mustaxkamlash mumkin bo'ladi, zero, bu tizim Surxon suvi zarbalariga bardosh bera olmaydi, ko'plab qo'shimcha suv havzasi qurishni talab qiladi. Bundan tashqari davlat tasarrufidagi sug'oriladigan erlarni 400 desyatinadan to 10000 desyatinagacha etkazish mumkinki, bu ham chor Rossiyasi xazinasini boyitishga xizmat qiladi»¹.

Podsho Rossiyasi Markaziy Osiyo hududidagi vaziyatni xisobga olib, asosan Termiz orqali yuk tashish va xom ashyo olib ketishni ko'paytirish maqsadida Buxorodan Termizgacha, Termizdan Hisorgacha hamda Termizdan Ko'lobgacha temir yo'l qurishni tezlashtirishga e'tiborini qaratadi. Qurilajak temir yo'l amirlik markazini Sharqiy Buxoro hududidagi beklilik bilan yaqindan bog'lar edi. Mazkur 9 ta bekliliklarda 470 ming kishi istiqomat qilib, ular tomonidan yiliga 528 ming botmon bug'doy, 272 ming botmon arpa, 113 ming botmon tariq, makkajo'xori va boshqa ekinlar hamda 152 ming botmon sholi etishtirilgan. Sharqiy Buxoro bekliliklarida ichki bozor kam taraqqiy etgan bo'lib, tashqi bozorga chiqish ko'plab muammolar mavjuddigi tufayli ancha sust rivojlangan. Bekliklarni qiynab kelayotgan muammolardan biri bu transport qatnovining yaxshi yo'lga qo'yilmagani edi.

¹ Турсунов С.Н., Пардаев Т.Р. Сурхондарё тарихи. Термиз.2010. 105-бет.

Shunday qilib, Surxon vohasida daryo portining ilk manzilgohi vujudga keladi. Umuman olganda, XIX asr oxiri XX asr boshlarida vohaning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy haëtida ancha orqaga ketishni quzatish mumkin.

III BOB. SURXON VOHASI ETNIK GURUHLARINING TURMUSH TARZI VA MADANIYATI.

3.1. Surxon vohasi etnik guruhlarining xo'jalik mashg'ulotlari.

Jahondagi barcha elat va xalqlar ancha murakkab etnik jarayonni boshdan kechirganlar. Chunki har bir etnos uzoq tarixiy davr davomida turli elatlar bilan aloqada, ba'zan bir joydan ikkinchi joyga ko'chib, boshqa etnoslar bilan aralashib, ularni o'ziga singdirib yoki tarkibiy qism qilib olish natijasida shakllanib kelgan¹. Asrlar davomida o'zbek xalqi etnik birliklari ham shu taxlit rivojlanib keldi. Bu jarayon Surxon vohasida sezilarli darajada iz qoldirgan. Vohada etnik birliklar yashash tarziga ko'ra qurama joylashgan. Har bir etnik guruh o'ziga xos milliy madaniyati, urf – odati, xo'jalik mashg'uloti va ko'p asrlik tarixga ega. Zero yurtboshimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda «Surxon jahon sivilizatsiyasining qadimiy beshiklari Qadimgi Baqtriya va Kushon davlatlariga zamin bo'lgani bilan olamga mashhur».²

Vohadagi etnik guruhlarining hozirgacha saqlangan nomlanishi X-XI asrlarga borib taqaladi. Asrlar davomida bu etnik guruhlar o'zlariga son jihatdan kamchilikni tashkil etgan etnik birliklarni singdirib borib o'ziga xos milliy madaniyat, urf – odat va xo'jalik mashg'ulotlarini yuzaga keltirishdi. Voha etnik guruhlarining aksariyati chorvachilik bilan shug'ullanganliklari bois butun voha bo'ylab madaniy aloqada bo'lib turishgan. Shu tufayli bugungi kunga kelib vohadagi turli – tuman etnik guruhlarining etnografiyasi bir-biridan deyarli farq qilmaydi.

Surxon vohasi Boysun tog'i va Bobotog' tizmalari o'rtasidagi xududni o'z ichiga oladi va bu hududning katta qismini dashtlik zona tashkil etadi. Bu xududlardagi mavjud etnik guruhlar turmush va xo'jalik tarziga ko'ra o'troq va yarim o'troq tarzida istiqomat qilishadi. Bu jarayonda yarim o'troq turmush tarzi ustun bo'lgan.

¹ Жабборов И. Ўзбеклар (анъанавий ҳўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти). Тошкент, «Шарк» нашриёти, 2008 йил, 10 – бет.

² Турсунов С, Қобилов Э, Пардаев Т, Буртозов Б. Сурхондарё тарих кўзгусида. Тошкент. 2008., 376-бет.

O'zbekistonning o'ziga xos tarixiy – etnografik mintaqalaridan biri bo'lgan Surxon vohasida ham xo'jalikning bir qancha lokal tiplarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Katta daryolar vodiysida yirik voha sug'orma dehqonchiligi. Bunda lalmi dehqonchiligi ham (Tog'larning quyi adir qismi) chorvachilikning xaydov shakli bilan qo'shib olib borilgan.
2. Tog' va tog' yonbag'rida mikrohavo sug'orma dehqonchiligi. Bunda bog'dorchilik, lalmi donchilik va chorvachilikning ko'ra – yaylov shakllari hunarmandchilik bilan qo'shib olib borilgan.
3. Tog' va tog' yonbag'rida haydov – yaylov chorvachiligining shartli sug'orma dehqonchilik va hunarmandchilik bilan qo'shib olib borilishi.
4. Dasht va adirlıklarda haydov – yaylov chorvachiligining lalmi yoki ba'zida sug'orma dehqonchilik bilan qo'shib olib borilishi.

Xo'jalikning birinchi va ikkinchi tiplari o'troq hamda keyinchalik o'troqlikka o'tib sug'orma dehqonchilik madaniyatiga ega bo'lgan aholiga tegishli bo'lsa, keyingi ikki tip yarimo'troq turmush tarziga ega va xo'jaligida chorvachilik etakchi o'rinda turgan aholiga tegishlidir. Bu tiplarda xo'jalik yo'nalishlari turlicha bo'lgan dehqonchilik madaniyati, o'ziga xos chorvachilik an'analari hamda hunarmandchilikning turli tarmoqlariga bog'liq bo'lib, muayyan tafovutlarga ega edi.¹

Asrlar osha mahalliy ziroatchilikda yer unumdorligini tiklash va agrotexnika usullarini takomillashtirish, tuproqni o'g'itlashning har xil usullari paydo bo'lib, sug'orish va sho'rni yuvish kabi usullar keng joriy qilingan. Mahalliy dehqonlar madaniy – etnik an'analari asosida dalachilik, polizchilik va bog'dorchilik sohalarida turli usul va yo'llarni ishlab chiqqanlar. Ziroatchilik sug'orish xususiyatlari va ekin turlari bilan ham farqlangan. Masalan, sug'orma dehqonchilikni mahalliy aholi

¹ Қаюмов. А. Хўжалик – маданий типлар ва этник дифференциация масалаларига доир. //Ўзбекистон тарихи журнали. 2008 йил, 3 – сон, 63–64 бетлар.

“suvli yer”, “tirama” yoki “Obikor”, “Obi”, sug’orilmaydigan yerlarni “lalmi” yoki “bahori” deb nomlaganlar¹.

Vohaning Boysun, Denov, Sariosiyo, Sherobodning tog’ oldi qishloqlari ekinlari daryo suvlari bilan bir qator buloq va keriz suvlaridan ham foydalanishgan. Xususan Ko’hitang tog’larining Sharqiy yonbag’rlarida joylashgan Sherjon, Vandob, Zarabog’, Qorabog’, Poshxo’rd, Chakob, Xatak, Qizilolma, Laylagon qishloqlarining ekin maydonlarini sug’orishda Oqtosh, Yoqubboykorez, Baz, Yormakorez, Chorvoqkorez, Buloqkorez nomli korezlardan foydalanishgan.

Surxon voxasi etnik guruhlarining dehqonchilik xo’jaligi intensiv sug’orma dehqonchilikka asoslanib, turli xil madaniy o’simliklarni etishtirish uchun juda qulay bo’lgan tog’oldi tekisliklari va yirik daryolarning qadimgi o’zanida voha sug’orma dehqonchiligi tarzida shakllangan. Bu xo’jalik tiplariga Surxondaryo va Sheroboddaryolarning o’rta va yuqori havzalari, uning irmoqlari orqali sug’oriladigan xududlar kiradi.² Asosiy etishtiradigan maxsulotlariga don maxsulotlari kirgan. Etishtirilgan bug’doylarni suv tegirmonlarida un qilishgan. Boysun tumanining Kengdala qishlog’ida xozirgacha suv tegirmonlari ishlamoqda.³ Sun’iy sug’orma dehqonchilik vohalaridagi aholi turli xil maxsulot ishlab chiqarish bilan birgalikda boshqa xo’jalik tiplaridagi aholidan xom ashyo, yarim tayyor maxsulotlar, hunarmandchilik maxsulotlari kabi zarur ishlab chiqarish vositalarini ham sotib olganlar. Vohada qo’ng’irotlarlar dehqonchilik bilan bir qatorda uy xunarmandchiligi bilan ham shug’ullanishgan. Bunda asosan hunarmandlar xo’jalikda ishlatiladigan maxsulotlarni tayyorlashgan.

Surxon vohasida donli ekinlardan: bug’doy, arpa, sholi, tariq, jo’xori, oq jo’xori, dukkakli ekinlardan, mosh, loviya, no’xat, moyli ekinlardan: kunjut, zig’ir ekilgan. Sabzavot ekinlaridan: piyoz, sabzi, sholg’om, oshqovoq, poliz ekinlaridan: qovun, tarvuz, bodring, texnik ekinlardan: paxta, kanop, tamaki ekilgan.

¹ Турсунов Н. Жанубий Сурхон аҳолисининг этник хусусиятлари.(XIX аср охири – XX аср бошлари). Афтореферат. Тошкент., 2007.

² Қаюмов. А. Хўжалик – маданий типлар ва этник дифференциация масалаларига доир. //Ўзбекистон тарихи журнали. 2008 йил, 3 – сон, 63–64 бетлар.

³ Дала ёзувлари. 2011 йил ноябр. Бойсун тумани.

Surxon vohasida bug'doyning «Tuyatish», «oqbug'doy», kabi turlari ekilgan. Vohada qovunning: ko'kcha, amiri, bo'rikalla, oq novvot, zarkokil, chapcha, otkalla, tirish kabi navlari, tarvuzning «qo'ziboy», hayitqara, chinni tarvuz, «Bo'sajin», Qora tarvuz kabi turlari, oshqovoqning: palov kadi, chapchakadi, dostar kadi, «Saqich kadi», Jovkadi kabi turlari ekilgan. Surxon vohasi dehqonlari katta paykallarni, ochiq yerlarni «dala» deb yuritganlar va u yerlarga bug'doy, paxta, sholi, kunjut, zig'ir va poliz ekinlari ekanlar, qishloqlarning ichidagi sabzavot va poliz ekinlari ekiladigan yerlar hamda bedazorlar «hayot» (hayat) deb atalgan. Dehqonlarning ko'pchiligi yerlarni uch paykalga bo'lib foydalanishgan. Jumladan kattaroq maydonlarga bug'doy, arpa, tariq, kunjut, mosh, zig'ir ekishgan. Bu ekinlar suvni oz talab qilgan va mavsum davomida 2-3 marta sug'orilgan. Bu ekin turlari ayni vaqtda erta pishgan may va iyun oylarida yig'ishtirib olingan. Hosil yig'ishtirib olingan yerlar «angara» deb atalgan. «Angara» maydonlari bir marta haydalib o'rniga ikkinchi ekin (ya'ni kechki ekin) ekilgan. Bunday ekin turlariga jo'xori, kechki poliz ekinlari kirgan¹. Yer maydoni ko'p bo'lgan xo'jaliklar ayrim ekin maydonlariga dam berish va yerning unumdorligini oshirish maqsadida hech narsa ekmasdan yerni haydab bo'sh qo'yishgan, bunday yerlar «shudgor» deb atalgan. Kuzda ekiladigan ekinlar «oq ekin», bahorda ekiladigan ekinlar esa «ko'k ekin» deb atalgan. Oq ekinlarga bug'doy va arpa kirgan, ko'k ekinlarga esa poliz va sabzavot ekinlari kirgan. Turmush tarzidagi o'zgarishlar sababli voha dehqonchiligiga Yangi ekin turlari ham kirib kelgan. Bunday ekin turlaridan pomidor, kartoshka, karam, rediska, baqlajon va shu kabi ekin turlarini misol keltirish mumkin. Kuzgi ekinlar may-iyun oylarida, bahorgi ekinlar esa oktyabr-noyabr oylarida yig'ishtirib olingan. Voha dehqonlari qadimdan saqlanib kelgan va dehqonchilikda nihoyatda zarur bo'lgan ma'lum hisoblarga qat'iy amal qilgan, Dehqonchilik taqvimiga binoan ekin ekilgan va yig'ishtirib olingan. Qish oylarini ham yoz oylarini ham to'qson kunlik taqvim asosida hisobi olingan. Bundan tashqari qishki chilla va yozgi chilla deb ataladigan har biri qirq

¹ Дала ёзувлари, 2011 йил ноябр, Жарқўрғон тумани.

kundan iborat bo'lgan hisob ham yuritilgan. Voha dehqonlari yilni to'rt fasl asosida quyidagi oylarga taqsim qilgan.

Bahor: hamal, savr, javzo. Yoz: saraton, asad, sumbula. Kuz: mezon, aqrab, qavs. Qish: jaddiy, davl, hut. Ana shu fasllavrga qarab yer haydalgan, urug' sepilgan, hosil yig'ishtirilgan. Voha dehqonlari dehqonchilik homiysi sifatida bobodehqonga sig'inishgan. Bundan tashqari Xo'jai Xizr dehqonchilikda mo'l-ko'lchilik homiysi sanalgan. Hazrati Sulaymon ota esa suv va miroblar homiysi sifatida ulug'langan. Shuningdek dehqonchilikda mo'l hosil olishni niyat qilgan holda xayr xudoyi, darvishona, shox moylar, aziz-avliyolar va ajdodlar ruhiga atab is chiqarish kabi marosimlar ham bajarilgan. Voha aholisi xo'jalik faoliyatining muhim tarmog'i sanalgan dehqonchilik xo'jaligi turmushini faravonlashtirish va to'kin-sochin bo'lishida muhim ahamiyat kasb etgan¹.

Dehqonchilik xo'jaligining rivoji avvalo xo'jalikning texnikaviy jihozlanishi va agrotexnikasiga bog'liq. Vohada dehqonchilik xo'jaligida ishlatiladigan yer haydash va ekin ekish qurollari ming yillar davomida shakllanib kelgan. Yerga ishlov berish qurollarining an'anaviy turlari hozir ham dehqonchilikda ishlatilib kelmoqda. Dehqonchilikda ishlatiladigan asosiy mehnat qurollari bel, ketmon, omoch, o'roq, mola, so'qa ishlatilgan. Bel yerni yumshatishdagi asosiy qurol bo'lib tepkili qilib yasalgan. Belning uzunligi 25-27 sm eni 20-23 sm, dastasining uzunligi 1,3-1,5 metrni tashkil etgan. Omoch - yerni haydashda ishlatiladigan omochning uchi temirdan yasalgan va poza deb atalgan. Poza temirchilar tomonidan tayyorlangan. Omoch bo'yintiriq va tirkash orqali ho'kizga qo'shilgan. Omochning bo'yintiriq va tirkash qismlari yog'ochdan yasalgan.(1-ilova)

Haydalgan yyerlarning kesagini ezish yerni tekislash va sepilgan urug'ni ustidan tuproq tortishda moladan foydalanilgan. Molaning 2 turi mavjud bo'lib, biri katta uzunligi 3-3,5 m bo'lib, ko'p yillik o'rik va tut yog'ochidan yasalgan. Molaning eni 40-60 sm bo'lgan.

¹ Дала ёзувлари, 2011 йил сентябр, Қумқўрғон тумани, Янги ер жамоа хўжалиги.

Mola ham ho'kizga qo'shilgan. Mola yasashning imkoni bo'lmaganda uning o'rniga omochning shotisi ishlatilgan. Molaning kichigi 2-2,5 m chamasi bo'lgan va uni qo'sh ho'kiz yoki ot tortgan.

Dehqonchilikda keng ishlatilgan mehnat quroli ketmon bo'lib, hajmi va shakliga qarab ketmonlar farqlangan. Eni 30-32 sm uzunligi 25-27 sm bo'lgan ketmonlar tuproq ishlarida, jo'yak olishda yerni tekislashda keng qo'llanilgan¹.

Hajmi kichik ketmonlar esa o'simliklarning tagini yumshatishda va chopiq qilishda ishlatilgan. Ketmon temirchilik ustaxonalarida tayyorlangan, ketmon sopi esa tol daraxtidan yo'nilgan. Dehqonlar arpa, bug'doy, beda, tariq, kunjut kabi ekinlarni o'rib olishda o'roqdan foydalanishgan. O'roqning ikki xili bo'lib, birinchisi kichik o'roq, ikkinchisi chalg'i deb atalgan.

Voha dehqonlari suvni tejashga juda katta e'tibor berishgan, shuning uchun ham ekish va sug'orish usuli ekin turiga qarab tanlangan.

Poliz ekinlari jo'yak olib, sabzavot ekinlari va paxta egat olib, beda va sholi ekinlari pol qilib sug'orilgan. Yerni shudgorlash muhim agrotexnik tadbir sanalib, kuz oylarida amalga oshirilgan. Ziroatchilik bilan shug'ullanish dehqondan ko'p narsani talab qilgan ekishni boshlashdan oldin an'anaviy boy tajribaga tayanilgan. Keksa dehqonlar nasihatiga amal qilingan. Yilning kelishi, ekin turi va navlariga alohida e'tibor qaratilgan. Voha dehqonlari har bir ekinning sharoitiga qarab sug'organ va agrotexnik tadbirlarni amalga oshirgan. Yerning unumdorligini oshirish va mo'l-ko'l hosil olish uchun yer muntazam tarzda mahalliy o'g'itlar bilan oziqlantirib turilgan. Yerni o'g'itlashda asosan go'ng ishlatilgan. ekin ekish ishlari hamal kirishi bilan boshlangan. Kuzgi yig'im terim ishlari esa mezon kirishi bilan amlaga oshirilgan. Hosildorlikni oshirish va dehqonchilikni yuksaltirishda yerni haydash, almashlab ekish, portov yer qoldirish kabi agrotexnik tadbirlar muhim rol o'ynagan².

¹ Қаюмов. А. Хўжалик – маданий типлар ва этник дифференциация масалаларига доир. //Ўзбекистон тарихи журнали. 2008 йил, 3 – сон, 63–64 бетлар

² Турсунов С.Н., Пардаев Т.Н. Сурхондарё этнографияси. Ўқув қўлланма. Термиз., 2010 йил, 26 бет

Vohaning tog' va tog'oldi hududlarida bog'dorchilik xo'jaligi ancha yaxshi rivojlangan. Vohada bog'dorchilik alohida xo'jalik turi sifatida ajralib chiqmagan, balki dehqonchilikning tarkibiy qismlaridan biri sanalgan. Voha aholisi tomonidan mevali daraxtlardan: olma, o'rik, shaftoli, anjir, anor, bodom, yong'oq, jiya, shotut, behi, uzum ekilgan. To'rt tomoni paxsa devor bilan o'ralib bitta darvoza yoki eshik qo'yilgan, tomorqalar chorbog' deb atalgan. Bundan tashqari bog'larning chetlariga uy qurish uchun mahalliy terak va tol ekilgan. Hovuz va buloqlarning bo'ylariga, yo'l chetlariga chinor va gujum ekilgan. Sayrobdagi chinorning ekilganiga qariyb ming yillar bo'lgan. Ushbu chinor yo'g'onligi va tanasining kovagi bilan odamlarning diqqatini tortadi. Tog'li va tog' oldi qishloqlari bog'-rog'larni yaratishga nihoyatda qiziqqan. Shu boisdan ham Hazarbog', Navbog', Qorabog', Yakkabog', Zarabog' kabi qishloqlar nomiga bog' iborasi qo'shib aytilgan. Vohaning Dashnobod qishlog'i o'zining anorlari bilan ancha mashhur bo'lgan. Anorining oq anor, qizil anor, shirinoyi anor, balxi anor, sultoni anor kabi turlari ekilgan. Boysun, Sina, Sangardak, Qizilolma, Sherjon qishloqlari olmalari bilan mashhur bo'lgan. Bu yerlarda olmalarning qizil olma, oq olma, sho'r olma, tosh olma, holvali kabi turlari ancha keng tarqalgan. Nokning gulobi, nashvati kabi turlari ayrim tog'li hududlarda azaldan ekib kelingan. O'rik o'stirishda Salovat, Sherjon, Qorabog', Zarabog' kabi qishloqlarda o'ziga xos tajriba to'plangan. O'rikning Salovat qishlog'ida etishtiriladigan Buzrugxoni navi ancha mashhur bo'lgan. Vohada azaldan ekib kelinadigan daraxatlaridan tut daraxti hisoblanadi. Tutning balxitut, shotut, xurosonitut, oqchinor tut, bedanatut, qoratut kabi turlari mavjud bo'lgan. Tut mevalaridan shinni, tutmayiz, murabbo, tut holva kabi oziqalar tayyorlangan.

Uzumchilik vohaning Xo'jasoat, Qarluq, Jobi, Obishir, To'xtamish, Zardaqluq qishloqlarida keng tarqalgan. Uzum toklari so'risiz yerda yoyib yoki ishkombay voyish ko'tarib o'stirilgan. Uzumning husayni, oq kishmish, qora kishmish, toyp, to'rmana, nahol, qora baxtiyori, allaki, qizil surxon, chov surxon, kelinbarmoq, avaq, shivirg'oni, sultoni, sopidak, kampiruzun, chilgi, surxak, otbag'ri, mildir

uzum, tuyatish, obaki, eshvoy, sabzak, qanyorug' kabi turlari bo'lgan. Surxon vohasida uzumning shirasi va turiga qarab 28 turga ajratishgan.

Surxon vohasining Bobotog' tizmalarida azaldan tabiiy pistazorlar ham mavjud bo'lgan. Mahalliy aholi pista mevalarini terib olib bozorlarga chiqarishgan. Voha aholisi yoz bo'yi sarhil mevalardan bahramand bo'libgina qolmasdan, ularni qish uchun ham quruq meva sifatida saqlashgan. Jumladan olmaqoqi, olchaqoqi, qaroliqoqi, o'rikqoqi, shaftoliqoqi, anjirqoqi, tutmayiz, mayiz, bodom, pista, yong'oq jiyda kabi mevalar quruq meva sifatida qishda iste'mol qilingan, hamda boshqa hududlarga sotish uchun bozorlarga chiqarilgan. Voha aholisi tol, tut, o'rik, yong'oq, zarang yog'ochlaridan beshik, o'rmaksoz, idish-tovoq, savat, eshik, rom, o'tovning jihozlari va boshqa turdagi turli uy ro'zg'or buyumlari ham tayyorlashgan. Umuman bog'dorchilik xo'jaligi voha aholisi xo'jalik faoliyatining ajralmas qismiga aylangan.

Hunarmandchilik xo'jaligi. Voha hunarmandchiligining muhim xususiyati uning ko'p sohaları bevosita uy-ro'zg'or xo'jaligi bilan bog'liqligi edi. Ko'pgina hunarmandlar asosiy kasbidan tashqari bog'dorchilik va dehqonchilik bilan ham shug'ullanib kelgan. Hunarmandlar o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlarni bozorlarga chiqarib sotish bilan bir qatorda, qishloq jamoalari ehtiyoji uchun zarur bo'lgan hunarmandchilik mahsulotlarini jamoa a'zolariga etkazib berib, evaziga mahsulot bilan haq olgan. Uy ro'zg'or kasb-korligida ip yigirish, to'qish, kigiz bosish kabi sohalar muhim o'rin tutgan. Hunarmandchilikning ravnaqi ishlab chiqaruvchi kuchlar va tovar-pul munosabatlarining rivojiga bog'liq bo'lgan.

Voha hunarmandlari o'z ustaxonalarini asosan uylarida, ba'zilar esa bozorlarda bunyod etganlar. Hunarmandlar o'z ijtimoiy tashkilotlariga ega bo'lib, maxsus uyushmalarga birlashganlar. Mazkur uyushmalar hunarmandchilik texnikasi va ishlab chiqarish xarakteri bilan bog'liq bo'lib, o'z hamkasblari manfaatlarini qo'riqlash maqsadida tuzilgan.

Hunarmandchilik ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan mehnat qurollari doimiy tarzda rivojlantirilib, mukammallashtirilib, xalqning xo'jalik va turmush

tarziga moslashtirib borilgan. Chunki hunarmandchilik oila uchun qo'shimcha daromad keltirib turgan.

Hunarmandchilikning shunday turlari bo'lganki, bu turlar bilan faqat ba'zi oilalar va mahallalar shug'ullangan. Ana shu hunar turiga qarab ham oila, maqalla va qishloqlar nomlangan. Masalan Abduraim kulol, Shodmon temirchi oilalari, Charmgarlar mahallasi (Boysunda) egarchi, Cho'yanchi qishloqlari (Sherobodda) hunarmandchilik sohalari nomlari bilan atalgan.(2-ilova)

Hunarmandchilikning qaysi turining qaysi hududda ravnaq topishi avvalambor aholining o'troq, yarim o'troqligiga, hudud tabiatiga, xom ashyoning mavjudligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan¹. Masalan Sherobodda kulolchilik, Denovda temirchilik va zargarlik, Boysunda to'quvchilik, tikuvchilik, charmchilik hunarlari ancha ravnaq topgan.(3-ilova) Vohada yashovchi o'troq aholi hunarmandchilikning temirchilik, duradgorlik, to'qimachilik, tikuvchilik, kulolchilik, tegirmonchilik, juvovkashlik, kashtachilik, do'ppido'zlik, etikdo'zlik, zargarlik, charmchilik sohalari bilan shug'ullangan bo'lsa, yarim o'troq aholi asosan gilam to'qish o'tovlar uchun kerakli anjomlar tayyorlash, hamda xo'jalik uchun zarur buyumlar (qop, arqon, oyna xalta, tuz xalta, po'stin, tulup, mesh, qovg'a, egarjabduq, poyafzal va hakoza) tayyorlashgan. Voha hunarmandchiligi ustoz-shogirdlik an'analari asosida avloddan-avlodga o'tib rivoj topib kelgan. Hunarmandlar shogirdlarni shogirdning kasbga bo'lgan qiziqishi, mehnatga chidamliligi, sabrbardoshi va kasbni o'zlashtirish mahoratiga qarab shogirdlikka olgan. Shogirdlar hunarni egallashi, kasbni o'zlashtirishdagi mahorati, buyum tayyorlash uchun zarur mahsulotni tanlashi, kasb sirlarini saqlashi, mehnat qurollarini tayyorlash, ishlatish ko'nikmalarini o'zlashtirishi jarayonida oilaviy shajara, qarindosh-urug'lar, uddaburon, qobiliyatli kishilar tanlab olingan. Shogird kasbni etarli darajada o'rganib olganidan so'ng o'z ustasi yonida xalfa vazifasida qolib ishlashi yoki mustaqil tarzda do'kon ochib faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan. Voha hunarmandlari davlatga zakot solig'ini to'lab turgan. Bu soliq yillik daromadning

¹ Дала ёзувлари, 2011 йил март, Шеробод тумани.

qirqdan bir qismini tashkil qilgan. Hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar ichki va tashqi bozor ehtiyojlarini imkoniyat darajasida ta'minlagan bo'lsada, ularning turmush darajasi ancha past bo'lgan. Chunki mahalliy bekliklar, ish boshqaruvchilar hunarmandchilikning rivojlanishiga moddiy va ma'naviy ko'mak bermaganlar¹.

Hunarmand ustalarning o'z homiy pirlari bo'lib, ular o'z pirlariga atab xudoyi va sadaqalar chiqarib turgan. Jumladan kulollar piri Hazrat Ali, rangrezlar piri Hazrati Jabroil, kosiblar piri Boboi Shavqi Porado'z, buyum va matoga naqsh beruvchi naqqoshlar piri hazrati Bahouddin Naqshband bo'lgan. Umuman voha aholisi xo'jalik faoliyatida hunarmandchilik sohasi muhim o'rin tutib, xalq turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan.

Surxon vohasida ancha rivojlangan hunarmandchilik tarmoqlaridan biri to'qimachilik sanalgan.(4-ilova) To'qimachilik hunari vohaning barcha hududlarida o'ziga xos tarzda mavjud bo'lgan bo'lsada, Boysun va Denovda juda yaxshi taraqqiy etgan. To'qimachilik hunari asosida uy sharoitida sidirg'a va guldor ip, ipak va yarim ipak gazlamalar to'qilgan. Ayniqsa, qalami, olacha, so'si, chit, joida, shoyi, atlas, bo'z, beqasam kabi matolar ko'plab to'qilgan. Bundan tashqari jundan shol, bosma, qoqma kabi matolar ko'plab to'qilgan va bu matolardan asosan ustki kiyimlar tayyorlangan. To'qimachilik tarkibida ip yigirish, mato to'qish va bo'yash kabi bir necha tarmoqlar bo'lgan. Ip yigiruvchilarning asosiy xom-ashyosi paxta, jun va ipak bo'lgan. Vohada ishlab chiqarilgan matolar o'zining rangdorligi va go'zalligi bilan farqlanib turgan. Matolarni ishlab chiqarish aholining an'anaviy xo'jaligi mashg'uloti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Chunki vog'a aholisi paxta etishtirish va undan mato tayyorlash bilan qadimdan shug'ullanib kelgan. Paxtadan uy sharoitida mato to'qish uchun paxta chigiti xalaji yordamida ajratib olingan. Yigirilgan iplardan "do'kon" deb nomlanuvchi to'quv moslamasida turli matolar tayyorlangan. To'qimachilik dastgoxida to'qiladigan matolarning uzun tortilgan iplari "tanda" yoki "o'rish" deb, ko'ndalang tortilgan ipi esa "arqoq" deb

¹ Жабборов И. Ўзбеклар (анъанавий хўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти). Тошкент, «Шарк» нашриёти, 2008 йил, 57 – бет

atalgan. Mokiga tanda o'tkazilib, har safar do'kon dastasi bilan jipslangan. Matolar qarichlab o'lchangan. Matolarning eni qisqa ya'ni 35-40 sm bo'lgan. Do'konda ikki marta olingan mato bir kiyimlik bo'lgan. Vohaning Boysun tumani olacha, janda, shoyi to'qishning markazlaridan biri sanalgan. Olacha yo'l-yo'l mato bo'lib, yo'llari qizil, qirmizi, zangori va to'q yashil ranglar bilan tushirilgan. Janda matosi Boysunning Sariosiyo qishlog'ida to'qilgan. Janda to'qishda Musulmon Qahhorov ancha nom chiqargan. Janda to'qish uchun ishlatiladigan oq paxta Jarqo'rg'ondan, bo'yoq esa Denovdan keltirilgan janda matosining eni 50 sm bo'lib, jandadan bitta to'nni tayyolash uchun 7-8 metr mato ketgan.

So'si yo'l-yo'l gulli yupqa mato sanaladi. So'si to'qishda tanda iplar bilan arqoq orasi ochiqroq qilib, olachadan yubqa va yirak qilib to'qiladi. Qishloq aholisi kiyim-kechak tikishda ko'p ishlatiladigan matolardan biri bo'z bo'lgan. Bo'z paxta ipidan dag'alroq qilib to'qilgan. Ipak olish uchun pilla qayta ishlanib, ipak iplar charxlarda to'qilgan. Bundan tashqari ipak ip va matodan sallalar chetiga jiyak, chiroz to'qish, sochga taqish uchun sochpopuklar ham tayyorlangan. Ayniqsa Boysun shoyisining shuhrati ancha yuqori bo'lgan. Mahalliy hunarmandlar tayyorlagan matolar uy sharoitida bo'yalgan. Bo'yoq tayyorlash usuli uzoq yillik tajriba va mashaqatli mehnat mahsuli bo'lib, ancha sir tutilgan. Mahalliy bo'yoqchilar rang tayyorlash uchun vohada o'sadigan mahalliy o'simliklar ro'yan, isparak, mardona, jinjak, anor va yong'oq po'stlaridan foydalanib turli ranglar hosil qilishgan. Matolarni bo'yash jarayoni to'qishdan avval bajarilgan. Bundan tashqari matolarga bosma naqshlar ham solingan. Matolarga bosma naqshlar solishda bir necha qoliplardan foydalanilgan. Qoliplar yuziga turli naqshlar o'yib chiqilgan va naqshning asosiy va tashqi chizig'i bo'lgan. Naqsh solish uchun qoliplar terak, tol, zarang, o'rik, bodom va yong'oq daraxtlarining yog'ochidan qilingan. Qurtilgan o'simlik ildizi poyasi va anor po'stlog'ining qaynatmasidan tayyorlanib, temir zangi qo'shilgan suvga mevali daraxtning quyuq elimi aralashtirilib, qora rangli qorishma hosil qilingan. Keyin shu qora rangga botirib olingan qoliplar matoga bosilgan. Vohada matoning bo'yash bilan shug'ullanuvchilar "nilchi", matoga gul bosuvchilar esa "chitgar" deb atalgan. Vohada har bir ustaning o'ziga xos ish uslubi matoga gul

bosish jarayonida yaqqol ko'ringan. Gul qoliplar ko'nga chidamli va otadan-bolaga meros bo'lib qolavergan. Vohada ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi matolarni jundan to'qigan. Jun avvalo yuvib, maxsus jun taroqlarda titilgan. So'ngra maxsus savacho'p yordamida savalgan va yigirilib ip holatiga keltirilgan. Jun iplar asosan tuzli suvda qaynatib olingan. SHuning uchun ham jun iplar pishiq va chidamli bo'lgan. Vohaning dasht, tog'li va tog' oldi mintaqalarida yashovchi chorvador aholi nafaqat jundan kiyim-kechak, qolaversa kundalik xo'jalik ashyolari gilam, xalta, kigiz, xurshun, xaltalar ham tayyorlashgan. Qo'y juni, tuya juni va echki juni (tivit) mato tayyorlashda asosiy xom-ashyo bo'lgan. echki junidan tivit salla, paytava va ro'mol tayyorlangan. Tuya junidan ko'proq chakmon tikilgan. Qo'ng'iroq va do'rmon qabilalarining zadogonlari asosan oq chakmondan ustki kiyim kiyishgan. Bundan tashqari tuya junidan joynomoz, dasturxon hatto ko'rpa ham tayyorlangan. Qo'y junidan tayyorlanganip yerga yotqizib to'qiladigan o'rmaklarda "shol" mato tayyorlangan. Xullas hunarmandchilik xo'jaligining tarkibiy qismi sanalgan to'qimachilik vo'ha aholisi turmush tarzida muhim o'rin tutib, aholining kiyinish madaniyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan.

Vohada yashovchi yarim ko'chmanchi qo'ng'iroqlar, juz va do'rmon qabilalari o'tov yasashda ham duradgorlik hunaridan foydalanishgan. O'tovning yog'och qismlari o'tov suyagi deb atalgan. Bitta o'tovning suyagini tayyorlash uchun o'n kun kerak bo'lgan. O'tov suyagini tayyorlashda asosiy material tol va terak novdalari bo'lgan. Xodalarni bir-biriga mustahkamlash uchun mixlar o'rnida charm ishlatilgan. Xodalarni egish uchun qalin yog'ochdan yasalgan dastgoh "tiz" deb atalgan. Vohada yasalgan beshiklar ham o'zgacha bo'lgan va boshqa mintaqalarda tayyorlangan beshiklarga o'xshab rang bilan gul solinmagan, balki yog'ochga kuydirib gul solish yoki o'yma gul solish usullari qo'llanilgan. Vohada bo'ya to'qish hunari bilan shug'ullanuvchilar bo'yrachilar deb atalgan. Bo'ya qamish novdalaridan to'qilgan. Bo'ya kigiz yoki gilam tagidan yerga to'shalgan. Shuningdek uylarning ustini yopishda hamda o'tovlarning atrofini aylantirishda "chiy" sifatida bo'yradan foydalanilgan. Sherobodda hatto bo'yrachilar qishlog'i ham bo'lgan. Umuman vohada uy-ro'zg'or buyumlari yasash an'anasi qadimdan

sayqal topib avloddan-avlodga o'tib kelayotgan noyob hunar turlaridan biri sanaladi¹.

Etikdo'z va maxsido'zlarning do'kon (ustaxona)lari asosan uyida va bozor rastalari atrofida joylashgan.(5-ilova) Ularning ishlab chiqarish asboblari: kashkart (maxsus pichoq), qolip, har xil igna, bigiz va andozalardan iborat bo'lgan. Charmni urib tekislash va cho'zish uchun og'ir temir asbob kuva ishlatilgan. Mahsi tayyorlash uchun taka terisi olinib, teri junlari ichki tomonga qilingan va poxol bilan o'ralgan teri 2-3 kun o'tgach chiriy boshlagan. Shundan so'ng tugun echilib jun yulib tashlangan. Bodom yoki o'rik qaynatmasidan bex qaynatib teriga quyilgan va 3-4 kun ushbu suyuqlik terida ushlab turilgan. Bu esa charmning ushba suyuqlik va suv o'tmaydigan holga keltirgan tarkibda oltingugurt alohida navli chinga (zok) suv qo'shilib bo'tqasimon holatga keltirilgan va terining ichki qismiga surtilib, teri qora rangga keltirilgan Zok tuprog'i asosan Qashqadaryo yoki Bandixondan keltirilgan. Voha mahsido'zlari xom teridan qo'nji kalta oyoq kiyimi mo'kki, shuningdek qattiq xom teridan choriq kabi oyoq kiyimlari ham tikishgan. Mo'kki va choriq asosan ommaviy poyafzal bo'lib, ko'proq quyi tabaqa vakillari uchun mo'ljallangan. Aholining o'ziga to'q va boy qatlamlari uzun qo'njli guldor etiklar, tagcharmi yumshoq kovushlar (ko'k kovush), hamda mahsilar ham tikishgan. Vohaning tog' va tog'oldi tumanlarida teridan podachilar uchun po'stin ham tayyorlangan. Voha ayollari ham teriga ishlov berishda o'ziga xos tajribaga ega bo'lib, ular teridan supra va po'staklar tayyorlashgan. Supra tayyorlash uchun teri ivitilgan, so'ngra yog'langan, o'rik va jinjak ildizi bilan maxsus ishlov terilgan va charm hosil qilinib supra tikilgan. Qo'y terisidan voha ayollari po'stak va katta to'rtburchak shaklidagi hasali po'staklar ham tikishgan. Hasali po'staklarning juni turli ranglar bilan bo'yalib, to'rt burchak shaklidagi hoshiyalar bilan bezatilgan. Charm mahsulotlarining tashqaridan ko'plab kirib kelishi, an'anaviy charm mahsulotlarining kamayishiga olib keldi va charmgarlik hunarining passayishiga sabab bo'ldi.

¹ Жабборов И. Ўзбеклар (анъанавий хўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти). Тошкент, «Шарк» нашриёти, 2008 йил, 92 – бет

Surxon vohasida chorvachilik azaldan yuksak darajada rivojlangan. Vohaning dasht va tog' oldi yaylovlarida otar-otar qo'ylar va echkilar uyur-uyur yilqilar va tuyalar boqilgan. Qishloqlarda ayniqsa yirik shohli hayvonlarning hamma turidan boqishgan. Shaharlarda esa xonaki hayvonlarning hamma turidan boqishgan. Chorvachilik xo'jaligi aholini nafaqat chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlabgina qolmasdan, xo'jalikning barcha sohalariga ot-ulovlar ham etkazib bergan. Ot, eshak, tuya va ho'kizlar qo'sh, arava, moy juvozlariga qo'shilgan. SHuningdek suvoriylarni ot-ulov bilan ta'minlashda ham chorvachilikning muhim o'rni bo'lgan. Vohada chorvachilikning shakllanishi mezolit davriga borib taqaladi. Chunki chorvachilik ovchilikdan shakllangan xo'jalik turidir. Zarautsoy suratlarida yovvoyi buqalarni ovlash jarayonining ifodalanishi ham bejiz emas. Zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"da ham chorvachilikka katta e'tibor qaratilgan. "Avesto"da ot, qoramol va mayda tuyoqli uy hayvonlariga e'tiqodiy munosabat izohlangan. Chorvadorlar iymonli sanalgan. Frodat-Fshova nomi bilan zikr etilgan iloh mayda mollarga homiylik qilgan. Qolaversa qadimda Baqtriya hududlari o'zining tuyalari bilan mashhur bo'lgan. Ahamoniylar eronining Persopil saroyidagi devor suratlarida Baqtriyaliklar tuya etaklagan holda tasvirlangan. Baqtriya tuyalari bir o'rkachli bo'lib, butun sharq olamida mashhur bo'lgan. Surxon vohasi aholisi qadimdan ot parvarishlashga ham alohida e'tibor bergan. Vohaning Bobotog', Ko'hitang, Boysuntog' va Hisor tog' tizmalari tog' oldi adirliklari, Istara cho'li, Tevat cho'li chorvachilik uchun qulay yaylov vazifasini o'tagan. Voha chorvadorlari o'troq aholi bilan doimiy savdo-sotiq aloqalarini olib borgan. Chorvador aholi Denov, Sherobod bekliklarining mol bozorlariga qo'y va echkilarini olib kelib sotishgan. XIX asr oxirida Mirshodi mol bozori ancha gavjum bo'lgan. Chorvador aholi o'troq aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgango'sht, sut, qatiq, jun, teri kabi chorvachilik mahsulotlarini muntazzam etkazib bergan. Chorvador aholi ma'lum darajada hunarmandchilik bilan shug'ullanib, po'stin, chakmon, kebanak, tulup, mesh, egar-jabduq va shunga o'xshash mahsulotlar ham ishlab chiqargan va o'troq aholiga sotgan.

Vohaning ayniqsa Qo'ng'iro't, Loqay, Do'rmon, Qarluq kabi yirik qabilalari chorvodor sanalgan. Ular asosan chorvachilikning qo'ychilik sohasi bilan shug'ullangan. Bahorda qo'ylar bolalaganidan keyin poda tog' va adirlardagi yaylovlarga yoki dasht-o'tloqlariga haydab chiqilgan. Chorvodor aholining yaqin yo'ldoshi ot sanalgan. Shu boisdan ham xalq dostonlarining barchasida ot lirik qahramonning yaqin yo'ldoshi va yordamchisi sifatida talqin etilgan. Xususan "Alpomish" dostonida Alpomishning sevimli oti Boychiborga alohida e'tibor qaratilgan. Voha aholisi hozir ham avloddan-avlodga o'tib kelayotgan an'analar asosida qo'ychilik, qoramolchilik, yilqichilik, tuyakashlik kabi sohalarni jadal rivojlantirib kelmoqda.

Qo'ychilik. Qo'ychilik voha chorvadorlarining sevimli mashg'uloti sanaladi. Vohaning Qo'ng'iro't, Juz, Do'rmon, Jaloyir, Qarluq qabila va elatlari yaylov chorvachiligi asosida qo'y va echkilarni boqqanlar. Voha aholisi orasida qo'y jannatdan keltirilgan degan aqida mavjud. Shu boisdan ham qo'ychilikka alohida e'tibor beriladi. Vohada qo'ylar juni va go'shti uchun boqilgan. Bundan tashqari qorako'lchilikka ham alohida e'tibor berilgan. Voha chorvadorlari ham o'zlarining chorvachilik taqvimiga ega bo'lgan. Agar dehqonlarida yil boshi 22-martdan boshlansa, cho'ponlarda yil boshi 16-martdan ya'ni hutdan boshlangan. Shuning uchun ham cho'ponlar orasida yaxshi kelsa hut kadi-kadi sut, yomon kelsa hut soylar to'la put degan ibora bejiz tarqalmagan. Cho'pon hisobi bo'yicha yerga amal Kirishi bilan o't-o'lanlar o'sib chiqa boshlagan. Ana shu kundan boshlab chorvadorlar yozgi yaylovlarga ko'chish ishlarini boshlab yuborgan. Vohaning Hisor, Bobotog', Ko'hitang tog' tizmalari va etaklari cho'ponlarning bahorgi yaylovlari sanalgan¹. Qishning kirishi va ob-havoning sovishi bilan chorva mollari pastliklardagi yaylovlarga jumladan Tevat cho'li, Istara cho'li, Sherobod cho'li va Qiziriq cho'liga haydalgan. Voha qo'ychivonlari 1000-1500 qo'yni yaylovlarga haydab boqqan. Qo'ychivonlar sardori - cho'pon uning yordamchilari esa cho'liq deb atalgan. Cho'ponlar asosan yaylovma-yaylov o'tovlarda, ko'chib yurgan.

¹ Дала ёзувлари, 2011 йил ноябр, Бойсун тумани Machay jamoa хўжалиги.

Cho'ponlarning turar joyi qoraui yoki lochiq bo'lgan. Voha qo'y chivonlari qo'ylarning hisori, qozaqi, isliqi, qorako'li, qorqo'y, chuvalang, g'aljaki, saltiparang, ko'rg'o'za kabi turlarini boqishgan.

Qo'y junidan ayrim xo'jaliklarda kigiz, palos, gilam, qop va xurjun ishlab chiqarilgan va qisman savdo qilingan¹.

Hisori qo'ylar vohaning Denov, Sho'rchi, Sariosiyo, Uzun tumanlaridan keng tarqalgan. Hisori qo'ylar serdumba bo'lib, yog'i va go'shti uchun boqilgan. Qish oylaridan qo'ylar qo'tonlarda saqlangan. Qo'ylar yoshiga qarab turli xil nomlangan. Masalan endi tug'ilgan qo'zi - barra, olti oygacha bo'lgani – qo'zi, bir yoshdan oshgani – to'qli, uch yoshli qo'y – shishak, to'rt yoshli qo'y – chori, besh yoshli qo'y – panji, olti yoshdan etti yoshgacha bo'lgan qo'y – mang'i deb atalgan.

Echkichilik etti xazinaning biri sifatida e'tirof etilgan. echki juni va go'shti uchun boqilgan. echki junidan xo'jalikda zarur bo'lgan arqon va ip eshilgan; terisidan poyafzal tikilgan, mesh hamda sanoch ishlab chiqarilgan. Qorako'l qo'ylarining terilari savdogarlarga sotilgan. Barra go'shtlari bozorlarga chiqarib sotilgan qo'y go'shti shahar va qishloq bozorlarini muntazam to'ldirib turgan. Cho'ponlar cho'pon tayog'ini muqaddas buyum sifatida ardoqlashgan, hatto cho'pon tayog'ining ustidan sakrash mumkin bo'lmagan. Cho'pon tayog'i avloddan-avlodga meros bo'lib o'tgan. Ayrim oilalar odatda 10-15 xo'jalikka birlashib qo'ylarini boqish uchun cho'pon yollagan va chaganaga qo'shgan. Cho'ponga mehnat haqqi ya'ni enchi yoki oshihalol sifatida qo'y, mahsulot va pul bilan haq to'lashgan. Cho'ponlar o'zlaricha homiy va madadkor sifatida Cho'ponotani pir deb bilishgan. Har bir cho'pon otarni yaylovga haydashdan avval cho'ponotaga is chiqarib, xudoyi qilgan. Qo'chqor shoxi yoki boshi eshik tepasiga ilib qo'yilgan. Qo'chqor shoxi uyga yomon niyatli kishilar bilan birga kirib keluvchi turli balo va qazolarni bartaraf etadi degan tushuncha mavjud bo'lgan, hatto kashtalarda ham qo'chqor shoxiga o'xshash naqshlar solingan. Bu naqsh solish usuli

¹ Жабборов И. Ўзбеклар (анъанавий хўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти). Тошкент, «Шарк» нашриёти, 2008 йил, 54 – бет

“qo’chqorak” deb atalgan. Umuman vohada qo’ychilik sohasida ulkan tajriba to’plangan va qo’ychilik hayotda mo’lchilik, seroblik va baraka ramziga aylangan.

Qoramolchilik. Voha aholisi qoramollardan asosan dehqonchilik ishlarida foydalangan. Qoramollar ko’proq o’troq aholi tomonidan boqilgan. Qoramollarning go’shti kam iste’mol qilingan. Chunki qoramolning go’shti “sovuqlik” deb hisoblangan. Faqatgina to’y va marakalarda buzoq va g’unajin go’shtlari ishlatilgan. Yirik shohli hayvonlar ham yoshiga va jinsiga qarab turli nomlar bilan nomlangan. Jumladan yangi tug’ilgan sigir bolasi – buzoq, bir yoshdan oshgan buzoq – to’rpi, ikki yoshlisi – tana, boqimdagi to’rt yashar erkak mol – buqa, uch yashar erkak mol – juvana, ikki yashar urg’ochi mol – g’unajin kabi nomlar bilan atalgan. Yirik shoxli mollar dehqonchilik ishlarida dehqonlarning yaqin yordamchisi sanalgan. Xususan yerni qo’sh bilan haydash, erga mola bosish, o’rilgan bug’doy va arpa donlarini ajratib olish hatto arava tortishda ham qoramoldan foydalanishgan. Ko’pgina qishloqlarda o’troq aholi qoramollarni so’qinga boqib semirtirib, go’shtini qishloq aholisiga sotishgan. Qoramollarni so’yib sotish odati dangana deb atalgan. Dangana har haftaning payshanba kunida qilingan. Voha aholisi qoramollar terisidan mo’kki, choriq, po’stin, mesh va shu kabi ashyolarni ham tayyorlashgan. Ayrim hududlarda qoramollar poda qilib ham yaylovlarda boqilgan. Qoramollarni boquvchilar podachi yoki podavon deb atalgan. Podachilarga mol boqqanligi haqqiga kunlik ovqat yoki natura tarzida bug’doy, un bilan ba’zan pul bilan osholol (oshihalol) berilgan. Qoramolchilikning ham o’ziga xos sir-asrirlari bo’lib, ularni podovonlar yaxshi bilishgan va rasm-rusumlarga qattiq amal qilishgan. Qoramollar piri sifatida Zangiota (Oyxo’ja ibn Toshxo’ja) ulug’langan. Dalaga qo’shni chiqarish yoki xirmonda donni yanchishdan avval Bobozangiga atab is chiqarishgan. Voha aholisi qoramollarni qishloqdan sog’-omon chiqarish uchun qishlik somon g’amlagan. Mollarning nasli va sog’lomligi qoramolchilikning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun ham voha aholisi chorva mollarining naslini yangilash va ko’paytirib borishga alohida e’tibor qaratib kelgan.

Yilqichilik. Voha aholisi qadimdan yilqichilik bilan shug’ullanib kelgan. Otlar maxsus otxonalarda ariq va daryo sohillarida arqonlab boqilgan. Otlar xo’jalik

ishlari transport vositasi va uloq chopish uchun boqilgan. Vohaning loqay, marka, qo'ng'iroq, chig'atoy qabila va elatlari yilqi bo'lishga alohida e'tibor qaratishgan. Hattoki turkiy urug'lar orasida kaltatoy urug'ining nomi ham ot tetemi bilan bog'liq. Kaltatoy so'zi kichik jussali kalta bo'yinli otni anglatgan¹.

Vohada otlarning jiyron, bo'z, chaqir, ko'k, oqyol, marka, loqay, qorabayir, arabi, oqaltaka turlari boqilgan. Mahalliy zotli otlar bilan yuqorida nomi zikr etilgan otlarni chatishtirish orqali saman, oqbuloq, to'riq kabi yangi zotli otlar yaratilgan.(6-ilova)

Otlar orasida jiyron va to'riq eng rangi yaxshisi sanalgan. Otlar yoshiga, jinsiga, foydalanish tartibiga qarab nomlangan.

Yangi tug'ilgan ot – qulun, bir yoshgacha – toychoq, bir yoshdan ikki yoshgacha – toy, ikki-uch yoshlisi – g'o'non, uch-to'rt yoshlisi do'nan, to'rt yoshdan keyin urg'ochisi – baytal, erkagi – ayg'ir deb nomlangan. Ko'k rangli ot bo'z, qo'ng'ir tusli ot – chil deb atalgan. Ishchi otlar cho'bir deb nomlangan. Yangi bolalagan ot – biya deb atalgan. Otlar podasi uyur deb nomlangan. Otlarni maxsus otxonalarda boquvchi kishilar sayis deb atalgan. Otni uloqqa ya'ni ko'pkariga qo'yishdan oldin sinovchi sayislar sinchi deb atalgan. O'ziga to'q oilalar 10 tagacha yilqi boqishgan. Ot asosiy transport vositasi vazifasini o'tagan. Ko'pkariga yaramay qolgan otlardan yaylovda suruvning izidan minib yurishda foydalanilgan.

Biroq otlar asosan ko'pkari uchun saqlangan. Shuning uchun ham bu yurtidan nomdor chavondozlar ko'p etishib chiqqan. Afsonaviy otlar xalq ijodida, doston va rivoyatlarda, shoirlar va baxshilar tilida kuylangan. Turkiy xalqlar eposi va mifologiyasi an'alariga ko'ra otlar qahramonning yaqin do'sti va yordamchisi sanalgan. Ot-yigitning qanoti degan naql bejiz to'qilmagan. Qadimgi turkiylar vafot etgan kishining ot iva egar-jabduqlarini yoqib kulini marhum ortidan olib borganlar. Voha aholisi otning piri va homiysi sifatida Bibi Qambarga is chiqarishgan. Voha ahli otni ilohiy jonivor sifatida ham e'zozlashgan. Xususan otning boshi turar-joy tomon qaratib bog'lansa u o'z nafasi bilan uyga qut-baraka beradi. deb

¹ Жабборов И. Ўзбеклар (анъанавий ҳўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти). Тошкент, «Шарк» нашриёти, 2008 йил, 54 – бет

hisoblashgan. Ot bor joyga ins-jins kirmaydi. Otning devi bor degan qarashlar ham mavjud bo'lgan. Otning taqasi baraka ramzi sifatida ostonaga eshiga qoqib qo'yilgan. Yangi tug'ilgan chaqaloq har ko'ylagini chaqaloqqa kiydirishdan oldin uni ot qozig'iga kiydirib olingan. Qizlar tushida ot ko'rsa sovchi keladi, yigitlar tushida ot ko'rsa, martabasi ulug' bo'ladi deb tushinilgan. Ayollar paranjisi ostidan betga to'siladigan to'r parda chachvon ham ot yolidan to'qilgan. Otning boshiga qamchi bilan urush gunoh sanalgan. Halq orasida Hazrat Alining oti Duldul, Go'ro'g'lining oti G'iro't, Alpomishning oti Boychiborga bag'ishlab terma va nag'malar ijro etilgan. Sherobodda Alpomish otining oxuri, Boychiborning izi deb ataladigan joylarning ham mavjudligi qadimgi ajdodlarimizning otga nisbatan alohida mehr bilan munosabatda bo'lganligini bildiradi.

3.2. Voha etnik guruhlarining an'anaviy madaniyati, urf-odatlar va ularga xos xususiyatlar.

Har bir xalqning urf-odatlar va rasm-rusumlari murakkab ijtimoiy munosabatlarning natijasi sifatida yuzaga kelgan. etnografik olamda hech bir xalq yoki millat madaniyati o'zga olamdan uzilib, qotib qolmasligi, balki qo'shni hududlar madaniyati bilan uyg'unlashuvi, natijada marosimlar, urf-odatlarda umumiylik yuzaga kelishi, lekin shu bilan birga har bir xalq madaniyatida o'ziga xoslik, uning ijobiy ba'zi tomonlari, ba'zi illatlarning saqlanib qolishi isbotlangan.

Shuningdek Surxon vohasida uzoq asrlar davomida bir hududda birga yashab, bir-birlari bilan chatishib ketgan elatlarning urf-odatlarida ham umumiylik ko'zga tashlansa-da, yuqorida aytib o'tganimizdek, o'ziga xoslik asosan saqlanib qolgan. Bu urf-odatlarda umumiylikni asosan ularda chuqur umuminsoniylik g'oyalarining mavjudligida ko'rishimiz mumkin. O'ziga xoslik, milliylik esa o'sha urf-odatlarning jarayoni ishtirokchilarining kiyinishlari, taomillari va hokazolarda o'z aksini topishi mumkin.(7-ilova)

Surxon vohasi aholisi madaniy hayotida asrlar davomida yuzaga kelgan katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan turli sayillar (bayramlar), o'yinlar, aytishuvlar (o'lan aytish, baxshichilik) alohida o'rin egallagan sayillar (bayramlar), o'yinlar ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oluvchi va kishilar o'zaro munosabatlarining turli jihatlari va shakllarida namoyon bo'luvchi muayyan urf-odatlari va an'analar, axloqiy tamoyil va huquqiy tartibotlarning tarixan shakllangan yig'indisidir. O'sha vaqtlarda aholi o'rtasida keng tarqalgan ommaviy sayillardan Ro'za hayiti, Qurbon hayiti, Navro'z va shuningdek turli xil mavsumiy sayillar (xalq yig'inlari) haqida alohida to'xtalish lozim.

Ro'za hayiti, Qurbon hayiti sayillari ommaviy sayillar bo'lib, bu kunlari kishilar bir-birlarini sayil bilan qutlaganlar, aholi yangi kiyimlarini kiyganlar, tevarakatrofni tozalaganlar, marhumlarni xotirlaganlar, mol so'yishib, qavm-qarindoshlarini, qishloqdoshlarini mehmon qilishgan.

Agar Ro'za hayiti, Qurbon hayiti, Navro'z sayili hududda ommaviy barcha aholi tomonidan nishonlansa, shunday bayramlar, sayillar bo'lganki, faqat ayrim qishloqlarda o'tkazilgan. Masalan, Zarabog' qishlog'i aholisi lola sayili (sayli guli surx- qizil gul sayli) o'tkazishgan. Axborotchilarning ma'lumotiga qaraganda, qishloq xo'jalari Imom Husayn (Alining o'g'illaridan biri) avlodlaridan bo'lib o'zlarini «xojagani guli surx» deb atashgan. Ularning ajdodlari shu yerga ko'milgan avliyoning mozorida shayx ekan, sayilning tashkilotchilari ham shular bo'lishgan. Qizil gul sayili ham ayni Navro'z kunlari o'tkazilib, Navro'z marosimi tantanalariga o'xshashligi bor. Bu bayramda uch kun sayil qilingan, bayram o'yin-kulgilari asosan qishloq maschiti oldida bo'lib, bayram sharafiga u yerda tug' ko'tarilgan. Bu sayil o'tgandan keyin Zarabog' qishlog'i atrofidagi qishloqlar aholisi uch oy mobaynida avliyoning mozoriga ziyoratga kelishgan. SHunday sayillar bo'lganki, faqat dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi yoki faqat chorvachilik bilan shug'ullanuvchi aholi tomonidan nishonlangan.

Navro'z xalqimizning qadimiy bayramlaridan biri bo'lib, 3,5-4 ming yillik tarixga egadir. Bu bayram nafaqat O'rta osiyo qolaversa, Yaqin Sharq mamlakatlarida ham nishonlanib kelingan. Zardushtiylik dinida muqaddas diniy bayramlardan biri sifatida hisoblangan. Navro'zning bayram sifatida qadimdan nishonlanib kelayotganligi, uning xususiyatlari hamda u bilan bog'liq bo'lgan rasm-rusumlar haqida Abu Rayhon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», Abulqosim Firdavsiy «Shohnoma», Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'otit turk», Umar Xayyom «Navro'znoma» kabi asarlarida to'xtalib o'tganlar.

Vohada dehqonlar Navro'zni yerga ishlov berib, ekin ekish mavsumining boshlanishi, bahorgi teng kunlik deb katta bayram qiladilar. Shuningdek «hamal» oyi kiradi, «hamal oyi a'mal oyi» yoki «hamal kirdi a'mal kirdi» deyilib katta tantana qilingan. Navro'z qadimiy kalendar hisobida Farvardin oyining boshlanishiga, ya'ni 22 martga to'g'ri keladi. 22 martni qadimgi SHarq xalqlari turkiy yilda «Yilboshi» («Navsard», «Navsarji»), forsiyda «Navro'z» («yangi kun» deb nomlangan).

Vohada Navro'zga bag'ishlab «Sumalak bazmi» marosimi o'tkazilgan. Sumalakni ayollar tomonidan Navro'zga 7-9 kun qolganida bug'doyi saralanib, benamoz kishi ko'zi tushmaydigan joyda o'tirilgan. Maysasi ungach, shu ayollar tomonidan mazkur taom pishirilgan. Pishirish jarayonida qo'shiq, o'yin-kulgu qilingan. Navro'z bayrami arafasida «Yil boshi oshi», «Yil ayrilish oshi» marosimlari ham o'tkazilgan. Navro'z kunlari arafasida qishloq oqsoqollari kengashib, bir kunni belgilaganlar. Yoshi ulug' bir kishi bosh bo'lib, qishloq ahlini yilboshi oshiga chaqirgan. Albatta, yil boshi oshi dalada, qishloq chetida o'tkazilgan. Bu marosimga har kim imkoniyatidan kelib chiqib, qozonda keskan osh, gunggula osh, guruch osh, jo'xori osh kabi taomlarni pishirib kelgan. Boshqa ayollar non, pishiriq, dasturxon ko'rpa-to'shaklar olib kelishganlar. eldan duo olmoqchi bo'lganlar ya'ni, farzand talab, yangi olgan xonadon, dehqonchiligim yaxshi bo'lsin deb niyat qilgan kishilar qora qozonini oshga to'ldirib kelganlar. Badavlat, shomozxon uch-to'rtta yoshi ulug' ayollar qo'liga cho'mich olib, mazkur taomlarni tarqatishganlar.

Dehqonchilik bilan bog'liq marosimlar. Surxon vohasida dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina qadimiy irim-sirimlar borki, ular o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Voha aholisi Bobodehqon va u bilan bog'liq urf-odatlariga qat'iy amal qilgan hamda uning ruhiy quvvat berishiga ishongan. Bobodehqon to'g'ri so'z, birovning haqida xazar qiladigan, halol mehnat bilan yashaydigan dehqonlarning hosiliga qut-baraka beruvchi dehqonchilikning piri deb hisoblangan. Bobodehqon hamisha tong sahardan turib mehnat qiladigan kishilarga madad beradi deb ishonganlar. Shu boisdan voha aholisi ekin ekayotganda Bobodehqon barakasini bersin deb is chiqarishgan. Is chiqarishda har kim imkoniyatidan kelib chiqib, ayrimlar mol so'yib, is chiqarsa, boshqalari toq sonda ya'ni 3, 7, 9 ta cho'zma (bo'g'irsoq) pishirib is chiqarganlar. Cho'zma pishirish jarayonida qozondagi yog'dan o'choqdagi cho'qqa bir-necha tomchi tomizilgan. Go'yoki, marhumlar ana shu moydan chiqqan hiddan bahramand bo'lib, ruhlari shod bo'ladilar va ekinlarga

qut-baraka tilar emishlar. Bobodehqonga atab qilingan isni oila a'zolari qo'ni-qo'shnilar iste'mol qilishgan¹.

Voha aholisi dehqonchilik qilishda kunning «o'ng» yoki «chap»liga, «xosiyatli» yoki «xosiyatsiz»liga katta e'tibor qaratganlar. ekin ekishdan oldin kunning «o'nglay»digan kishilardan so'rab, bilib keyin ekin ekilgan. Otabobolarimiz qadimdan hafta kunlariga bog'liq bo'lgan shunday dastur-amallar yaratganlarki, bu manbalarda haftaning har bir kunida qanday ishlarni qilish mumkinligi yoki mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan. Xususan, «Haftanoma»da dehqonchilik masalasida kunlar tahlilida, «Shanba (Zuhal-dehqonchilik qilmoq yaxshidir, bir donaga ming dona barakat berur, hargiz befoyda bo'lmas. Yakshanba (Quyosh)-dehqonchilik qilmoq ham yaxshi emas, ofat tushgan». Dushanda (Oy)-dehqonchilik qilmoq yaxshidir. Seshanba (Mirrix)-agar ziroat qilsa, qurt, sichqon yo hayvondin ul ziroat shikast topgan. Chorshanba (Atorit)-ammo dehqonchilik qilmoq yaxshidir, barakat paydo bo'lur, xirmon olmoq yaxshidir. Payshanba (mushtariy)-hamma korlarga yaxshidir. Juma (Zuhra)-dehqonchilik qilmoq yaxshidir».

Loy tutish marsoimi. Vohada dastlab ekin ekishdan avval sariq, shox ariqlar hamda kanallar qazilgan. O'tirib qolgan loyqalardan tozalangan. Shu vaqtda dehqonchilik marosimlaridan «Loy tutish» marosimi o'tkazilgan. Bunda ariq qaziyotgan odamlar oldidan biror yo'lovchi o'tib qolsa, o'tayotgan yo'lovchiga ariq qaziyotgan odamlardan bittasi bel yoki ketmonda loy tutishgan. Yo'lovchi tutilgan loyni uzatilgan asbobi bilan birga olishi shart bo'lgan, shu jarayonda yo'lovchi o'zining biror hunarini ko'rsatib, vaziyatdan chiqib ketishi mumkin bo'lgan. Xususan, baxshi dostondan terma kuylashi, hofiz qo'shiq aytishi, polvon kurashga tushishi, hunarmand esa ariq qazuvchilarning asboblarini ta'mirlashi lozim bo'lgan. Agarda bu holatdan chiqib keta olmasa, ariq qazuvchilarni mehmon qilishi yoki bo'lmasa ular tomonidan ko'rsatilgan ariqni tozalab berishi lozim bo'lgan.

¹ Дала ёзувлари, 2010 йил август, Жарқўрғон тумани, Сурхон жамоа хўжалиги.

Shoxmoylar udumi. ekin ekishning ilk kuni dalaga qo'sh chiqarish «Shoxmoylar udumi» bo'lib, dehqonchilik kasbiga oid eng muhim marosimlardan biri hisoblanadi. Chunki dehqonchilikka aloqador marosimlarning deyarli barchasiga mazkur udum yo'l ochib beradi, bu marosimga qishloq ahlining barchasi ishtirok etgan. «Shohmoylar udumi» erta bahorda asosan Navro'z kunlari o'tkazilib, dehqonchilik taqvimiga asosan dushanba, chorshanba yoki juma kunlaridan biriga to'g'ri kelishi lozim bo'lgan.

Odatda qishloq ahli o'z imkoniyatidan kelib chiqib, marosimga har xilda taomlar tayyorlashgan. Marosim o'tkaziladigan joyda qishloq ahli tomonidan pishirib kelingan taomlar tanavvul qilingan. Shundan keyin yoshi ulug', badavlat kishi tomonidan bu yilgi dehqonchilikka Ollohdan qut-baraka so'rab, duo qilingan. Hamda o'tgan yilgi bug'doydan qilingan non bo'laklarga bo'linib, marosim ishtirokchilariga tarqatilgan, bir bo'lagi qo'shga qo'shilgan ho'kizga berilgan. Ho'kizlarning baquvvat bo'lishi uchun ularning shoxiga zig'ir moyi surtilgan. Yomon ko'zdan, ins-jinsdan asrasin deb, isiriq ham tutatilgan. SHu kishi tomonidan dastlabki qo'sh solinib, toq sonida imkoniyatiga qarab, uch, besh yoki etti marta qo'sh haydagan. So'ngra o'tgan yilgi hosilning oxiri tutamidan olingan bug'doydan qo'sh bilan haydalgan yerga bir necha hovuch sepilgan. Qishloq mullasi tomonidan Bobodehqonning ruhiga Qur'on tilovat qilingan. Shu bilan bahorgi ekin-tekin ishlari boshlanib ketgan.

Sust xotin marosimi. Qadimdan saqlanib kelgan dehqonchilik marosimlaridan biri «suv sulton xotin» marosimi bo'lib, «sust xotin», «suv xotin» marosimi ham deb ataladi. Bu marosim asosan yil qurg'oqchilik kelgan yillarida lalmi dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan hududlarda butun qishloq aholisi tomonidan o'tkazilgan.

Mazkur marosim o'tkazishda dastlab kun o'nglanadi va maxsus bir kun belgilanadi. Qishloqdan o'n-o'n besh kishi odam shaklida qo'g'irchoq yasab, qo'g'irchoqqa yoshi kekxa ayolning ko'ylagini kiydirib, ko'chalarni aylangan.

Uning ortidan ergashib, qishloqdagi har bir xonadonga kirib chiqadilar. Har bir xonadon oldiga kelganda mazkur xonadon sohiblari qo'g'irchoq ustiga suv

sepib, ko'nglidan chiqargan xayr-sadaqasini berganlar. Vohaning Oltinsoy tumani Qumpaykal, qarluq qishloqlarida, janubiy Tojikistonda yashovchi o'zbek-loqaylarda mazkur marosimni asosan erkaklar o'tkazishgan. Ularda qo'g'irchoq o'rniga ishtirokchilardan biriga ayol kishining ko'ylagi kiydirilib, suv yana shu kishining ustidan sepilgan. Loqaylarda 15-20 kishi to'planib, yarim-yalang'och ikki kishini bir-biriga qaratib eshakka mindirganlar. Ularning o'rtasiga ikki toshbaqani oyog'idan bog'lab, eshakning ikki tomoniga osiltirib qo'yganlar. Mingashgan kishining biriga suv solingan cho'p kadi tutqazilgan, ikkinchisiga esa bir-biriga bog'langan ikki qamish naycha berilib, naychalar suv solingan cho'p kadi ichida aylantiriladi va guvillab ovoz chiqaradi. Bu ovoz go'yoki qiynalgan toshbaqalarning ovoz chiqarishiga taqlid hisoblanadi, Qolgan ishtirokchilar ularning orqasidan ergashib, «sust xotin» qo'shig'ini aytib qishloqdagi xonadonlarni birma-bir aylanib chiqadilar. Uy egasi eshakka mingan kishilar ustidan suv sepadi va marosim ishtirokchilariga xayr-sadaqa beradi. ertasi kuni yig'ilgan xayr-ehsonlardan qishloqning bir chekka joyida osh qilinib, xalqqa berilgan. Xudolarning ramziy shakllarini haykal yoki qo'g'irchoq qiyofasida yasab, unga sig'inish hamda turli marosimlar o'tkazish juda ko'p xalqlarda, shu jumladan O'rta Osiyo xalqlarida eng qadimiy davrlardan mavjud ekanligini arxeologik va etnografik ma'lumotlar tasdiqlaydi. «sust xotin» marosimi yakunidagi qo'g'irchoqni kuydirib yuborish yoki eski quduqqa tashlash udumi uzoq o'tmishdagi ajdodlarimizning qurbonlik qilish marosimining qoldiqlaridan ekanligini aniq ko'rsatib turibdi.

Hosil yig'ishtirish bilan bog'liq marosimlar. Vohada dehqonchilikda etishtirilgan hosilni yig'ib-terib olishdan oldin «Xayrixudoyi» marosimi o'tkazilgan. Bu marosimda mo'l-ko'l hosilni eson-omon yig'ishtirib olishni niyat qilib, «jonlig'» so'yib, qishloq ahlini taklif qilgan. Bu odat Ollohga qilingan xayr-ehson bo'lib, taklif qilingan mehmonlar taomlarni tanavvul qilib bo'lganlaridan keyin, xatmi «Qur'on» o'qilib, ollohdan aziz-avliyolardan etishtirgan hosilni mo'l-ko'l bo'lishi, uni nes-nobud qilmay yig'ishtirib olsin deb tilak tilab duoyu fotiha qilingan. Xayrixudoyi marosimlarini ayrim elshunos olimlar, bu duo va iltijolar kabi

insoniyatning ibtidoiy qolaversa, eng qo'yi bosqich taraqqiyotiga xos deb ta'kidlaydilar.

Vohaning lalmi dehqonchilik qiladigan Sherobod, Boysun, Denov, oltinsoy, Uzun, Sariosiyo tumanlarida paykaldagi so'nggi qismi bug'doy, zig'ir yoki tariq kabilar rib olinayotganda «tulki qochdi», «quyon qochdi», «shog'ol ketdi» kabi marosimlari g'alla o'rimida ishtirok etayotgan paykal a'zolari yoki hasharchilar tomonidan amalga oshirilgan. Chunki qishloqning ziroatkor ahli katta paykallardagi hosilni yig'ishtirib olishda ko'pincha qo'ni-qo'shnilar, og'ayinlar hamda qarindoshlarni hasharga chiqargan.

Mazkur dehqonchilik mroasimida ekin paykalidagi g'allaning kam qismi qolganda hasharchilar o'rilmagan g'allani har tarafdin o'rab olishgan. Hasharchilardan biri «yigitlar tulki qochdi, qani uni ushlash kimga nasib etadi yoki «shog'ol ketdi, kim chaqqon bo'lsa, o'shanga shog'olni ushlash nasib etadi» deb hasharchilarga ruhiy quvvat beradi. Chunki katta ekin paykalidagi g'allani o'rish hamma hasharchilarni holdan toydirgan. Bu marosimda esa yosh hasharchilar ishtirok etgan. Yoshi keksalari esa chetda turib, yuqoridagi so'zlarni aytib «hay barakalla» qilib turganlar. Oxirgi tutam g'allani o'rib olgan yigit uni uyiga olib borib, uyining devoriga osib qo'ygan hamda oxirgi «baraka urug'ini o'rib olish unga nasib etganligini hisobga olib, hasharchilarga o'zining uyida imkoniyati darajasida ziyofat qilib bergan.

Keyingi ekin yilida «baraka urug'i»ni uch qismga bo'lib, bir qismi urug'chilik bug'doyga aralashtirilgan, ikkinchi qismi tegirmonga tortiladigan donga qo'shib yuborilgan, uchinchi qismi esa hamsoyalarga ulashilgan.

Shunday qadimiy dehqonchilik marosimlaridan yana biri «oblo baraka» marosimidir. Hasharchilar bug'doy o'rimini so'ngida bir parcha o'rilmagan yerni har tomondan o'rab, asta o'rib kelaveradilar. Bunday paytda har bir o'roqchi oxirgi tutam bug'doyni o'rab olishga harakat qiladi. Oxirgi tutam bug'doy esa «Ona bug'doy» deb yuritiladi. qaysi bir o'roqchi ana shu tutamga etib olsa, «ettim-ettim, obolo baraka bersin» deb uni o'rib oladi.

Shamol chaqirish marosimi. Bu marosim boshqa dehqonchilik marosimlari kabi kadimiy bulib, shamol homiysi Haydar bilan bog'liq urf-odatlar va marosimlar Urta Osiyoda yashab kelgan turkiy xalqlarning udumlaridan biri sanaladi.

Ilmiy manbalarda shamol homiysi bilan bog'liq bo'lgan masalalar yuzasidan to'xtalib o'tilgan. Shamol chiqarish marosimida kuylangan qo'shiqlarda shamol xomiysi sifatida haydar shaxsiyatiga, ya'ni Muhammad payg'ambarning kuyovi Hazrati Aliga murojaat qilinadi. Afsonadarga ko'ra, haydar kuch-qudrati va tadbirkorligi bilan barcha tabiat hodisalari, jumladan shamolni o'am o'z izmida saqlar emish. Agar unga iltijo qilinib murojaat etilsa, u o'zi tutib turgan shamolni qo'yib yuborar emish. Bu narsa qo'yidagi to'rtlikda yaqqol tashlanadi:

Haydar, ota-onang o'libdir,

Moli senga qolibdir.

Bolang suvga oqibdir,

SHamolingni qo'yvor.

Keltirilgan to'rtlikda qadimgi shamol chiqarish marosimida ijro etilgan qo'shiqning islom ta'siriga uchragan namunasi saqlanib qolgan. Biroq O'rta osiyo xalqlarida islomga qadar bo'lgan mahalliy shamol kultlari ham bo'lganki, ulardan biri yalang'och ota nomi bilan yuritilgan¹.

Voha aholisi dehqonchilik bilan bog'liq e'tiqodlari, marosimlari, urf-odatli hamda irim-sirimlari ming yillar davomida shakllanib, takomillashib kelgan. Yosh kelajak avlodlarni o'z ajdodlarining qadriyatlarini e'zozlashga o'rgatilib kelingan.

Chorvachilik bilan bog'liq marosimlar. Voha aholisi qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanib kelganlar, shu boisdan vohada chorvachilik bilan bog'liq irim-sirimlar borki, aholi tomonidan hanuzgacha unga amal qilib, uning ijobiy tomonlaridan foydalanib kelmoqdalar. Xususan, chorva uchun eng muhim, zarur bo'lgan narsa bu yaylovdir. Xalqimizning qadimiy tasavvurlariga ko'ra, har oyning birinchi kuni sharqqa, uchinchi kuni janubga, beshinchi kuni g'arbga, ettinchi kuni shimolga yurish qilish mumkin hisoblangan. Qadimda chorvador

¹ Дала ёзувлари, 2010 йил, Жарқўрғон тумани, Сурхон жамоа ҳўжалиги.

o'zbek urug'laridan biri-qo'ng'irotlar ana shu kunlari yangi yaylovlarga ko'chmaganlar. Go'yo bu kunlar «og'ir» bo'lib, biror kor-hol ro'y berishi mumkin deb qo'rqqanlar.

Chorvador aholi chorva mollarining pirlariga sig'inib kelganlar. Ushoq mol ya'ni qo'y va echkinining piri Cho'pon otaga sigir molning piri Zangi boboga atab sadaqa chiqarib, is qilib kelganlar¹.

Voha aholisi chorva mollari kasallikka chalinsa shu aziz avliyo qadamjoylariga mollarini haydab borib, aziz avliyoning qabri atrofidan uch marta aylantirishgan. Mollarni haydab borgan cho'pon tayog'ini shu ziyoratgoh yoniga «kasalliklar shu yerda qolsin» degan niyatda qadab qoldirgan. Mabodo ziyoratgoh juda olis joyda bo'lsa, mollarini haydab borolmagan cho'pon shu ziyratgoh tuprog'idan olib kelib, kasallangan mollariga shu tuproqni tuzga aralashtirib edirishganlar. Shuningdek, mollar kasallanganda kalomi sharif ya'ni Qur'oni Karim olinib, keksa cho'ponning sallasi o'rtasiga bog'lanib, qo'ton og'ziga sallaning ikki tomonidan ikki kishi ushlab turgan. Qo'tondan mollar haydab chiqilganda sallaga bog'langan kalomi sharif tagidan mollar o'tgan. Bu amal uch marotaba takrorlanib, shu tariqa mollarga kelgan kasallik daf etilgan.

Chorvador aholi mollarini ko'paytirish maqsadida kun o'nglanib, asosan seshanba kuni uchchitish uchun erkak mollarni urg'ochisiga qo'yishlangan. Bunda avval erkak mol shoxi orasiga qovun yoki tarvuz yorishgan. Bu ish qovun yoki tarvuzning urug'iga o'xshab mol-holim ko'paysin degan ma'noda qilingan. SHuningdek, shu kuni «Cho'pon ota», yoki «Zangi bobo» nomiga mollarimiz ko'paysin deb is chiqarilgan.

Voha aholisining chorva mollarini davolashda Zardushtiylik dini bilan bog'liq bo'lgan jihatlarini ham ko'rish mumkin. Xususan, mollarning hammasi kasallikka chalinsa, keksa nomozxon kishi yarim quloch uzunlikdagi tayoqcha yog'ga belangan lattani bog'lab, molxona ichida yoqib, mollar ustidan aylantiradi. Mollar esa hurkib, molxonaning u burchagidan, bu burchagiga qochishi lozim.

¹ Дала сўровлари, Бойсун тумани, 2011 йил август, Кенгдала маҳалласи.

Oltinsoy tumanidagi Degrez qishloqlarida sog'iladigan sigirlarni yomon ko'zdan asrash uchun shoxlariga duo bitilgan tumorlar osib qo'yilganligi guvohi bo'lindi. Agar sigir sog'dirish jaaryonida tepish odatlari paydo bo'lsa, sigir ko'zikkan deb hisoblanib, yaqin atrofdagi «ko'zi bor» kishilarning kiyimlaridan ip olinib, isiriq bilan qo'shib yoqilgan va sigirni atrofiga aylantirilgan. Uning elini kasallanganda «kes-kesh» irimi ya'ni tadbiri amalga oshirilgan. Bunda sigirning suti, o'choqda qizdirilgan osh pichoq bilan «suqdan bo'lsa kesdim, ko'zdan bo'lsa kesdim» deb uch marta idishdagi sutga bostirilib kesilgan. Sigir sog'ilayotganda idishdagi sutga begona kishining ko'zi tushsa, sigir ko'zikadi deyilgan¹.

Oilaviy hayot bilan bog'liq irimlar. Voha aholisining ayol xomiladorligi masalasida bir qancha irim-sirimlari borki, bunda xomilador ayol yerda yotgan arqon ustidan sakrab o'tsa, xomilasining kindigi bo'yiga o'ralib qoladi. Cho'pon tayog'ining ustidan hatlab o'tsa, chaqaloqning burni uzun bo'lib tug'iladi. Saqich chaynasa, bolasining qulog'i og'riydi. Tandir kosovni ustidan hatlasa, bolasi o'lik tug'iladi. Oqar suvda cho'milsa, suv parilari ziyon etkazadi, deb irimi qilganlar.

Chaqaloqning sog'lom bo'lishi, uning sog'ligini saqlash hamda o'z davriy muddatida yorug' dunyoga kelishini ta'minlash maqsadida homilador ayolga quyon, tuya go'shtlarini iste'mol qilish ta'qiqlangan. Tuya go'shti iste'mol qilsa, homilasini bir yil ko'tarib, chaqaloq tug'ilajak vaqtidan ancha keyin dunyoga keladi deb hisoblashganlar. Mabodo farzandning dunyoga kelish vaqtidan o'tib ketsa, homilador ayol istiqomat qiladigan uyda tuya junidan isiriq qo'shib tutatilgan. Chaqaloqni dunyoga kelishi qiyinlashsa, otasi yoki onasining choponi «o'ngiri» bilan silangan².

Chaqaloq dunyoga kelgandan keyin chilla saqlangan. Chilla qirq kunlik muddat bo'lib, kichik va katta chilla qismlariga bo'lingan. Bunda chaqaloq va onani yovuz ruhlardan asrash maqsadida qirq kun ichida ma'lum irim-sirimlarga qat'iy rioya qilishgan. Kichik chilla dastlabki yigirma kundan iborat, uning uchinchi, beshinchi, ettinchi, to'qqizinchi kunlari chaqaloq va onasi uchun xavfli hisoblangan.

¹ Дала ёзувлари, 2011 йил, декабр. Олтинсой тумани.

² Дала ёзувлари, 2012 йил март Жарқўрғон тумани, Сурхон жамоа хўжалиги.

Shuning uchun chaqaloq o'zini yomon tutsa, o'sha kunlari shu xonadon sohiblari asosan biror suyuq taom pishirib, qo'ni-qo'shnilarga tarqatishganlar.

Dunyoga kelgan farzandlari yoshiga etmasdan, ketma-ket vafot etib ketaversa, chaqaloqni ilk marotaba onasiga emizishdan avval ma'lum irim-sirimlar bajarilgan. Bunda chaqaloq dunyoga kelgandan keyin doya ayol «chaqaloqdan har qanday balo yiroq yursin, umri uzun bo'lsin, itdek ko'payib yursin, yo'liqqan balo-qazolar itga yopishsin» - degan maqsadda chaqaloqqa bir-ikki tomchi it sutidan ichirgan. Chaqaloq yana kasalga chalinaversa, bo'rining og'zidan o'tkazib olingan hamda chaqaloqqa Bo'riboy yoki Jondor kabi ismlar qo'yishgan. Farzandi turmaydigan kishilar Tursuntosh, mahkamboy, turg'un, tursun, to'xtamurod, to'xtasin kabi ismlar ham qo'yishganlar.

Vohada beshik to'yi hamda chaqaloqni beshikka belash bilan bog'liq bir qator irimlar mavjud. Beshikni xoloslash udumida beshikni boshida ko'tarib kelgan momo yonib turgan olov ustidan uch marotaba hatlab o'tadi. Isiriq tutatilib, beshik atrofidan aylantiriladi. Beshik boshiga yovuz kuchlar, ins-jinslar aylanmasin degan maqsadda beshik ichiga bir tomoniga pichoq, yomon ruhlardan himoya vositasi sifatida tosh, yovuz kuchlardan qo'riqlaydi deb non, piyoz hamda oyna qo'yadilar.

Bolani dasturxondek ulug' bo'lsin deb beshik ustiga dasturxon yopganlar. Boy-badavlat, ko'ngi oq bo'lsin deb tong, parvardalar sochishgan. Ota-onasi chaqirgan vaqtda qo'rqmasin deb, paxtani yog'ga bo'ktiribpilik chiroq qilib, beshikdan 7 marta aylantirib, «qo'rqma-qo'rqma» qilingan. Shuningdek, qattiq tovushdan qo'rqib uyg'onib ketmasin degan maqsadda «o'qlov» bilan beshikning bosh tomoni hamda qubbasiga tovush chiqarilib urilgan.

Chaqaloqni cho'miltirish bilan bog'liq irimlar ham mavjud. Asosan bola uch kunlik bo'lganda cho'miltirilgan. Bolani cho'miltirishda sho'r suvga boy-badavlat bo'lsin, ko'z tegmasin degan maqsadda tanga, uzuk, go'sht, bug'doy, munchoq, paxta, quyruq solishgan.

Bolalarni «suq» yoki «kinna» dan asrash maqsadida «tumor» olib berishganlar. Tumorlarni yosh bolalarga, homilador ayollarga mullalardan yozdirib olib berilgan. Tumorlar kishini ins-jinsdan, yomon ko'zlardan asraydi degan ishonch

voha aholisida mavjud. Tumorga suv tegishi, igna qadalishi mumkin bo'lmagan, aks holda o'z kuch-qudratini yo'qotdi deb ishonilgan.

Surxon vohasi aholisining sayillari va rasm-rusumlari o'ziga xosligi va jozibadorligi bilan alohida ajralib turadi. Chunki bularning barchasi aholining turmush tarzi va tarixiy qadriyatlari bilan uyg'unlashib ketgan¹.

Viloyat qo'shiqchilik ijodiyotida etakchilik qilayotgan ushbu turkum asosini qo'shiq, terma, lapar, yalla kabi janrlar tashkil etadi. "Qo'shiq", "terma", "lapar", "yalla" atamalariga musiqashunos olimlar tomonidan ilmiy ta'rif birilgan bo'lib, ko'plab tadqiqotlarda o'z isbotini topgan. Ayrim qo'shiqlar lirik xususiyatlarga ega. Chunonchi, qo'shiqlarning she'riy matni kishining ichki ruhiy kechinmalarini ifoda etib, undagi his-tuyg'u, lirik kayfiyat qo'shiqning kuy-ohangraboligiga, tashqi muhit bilan o'zaro uyg'unlashuviga mazmun eltuvchi vazifani o'taydi. Bunda kuy-ohang bilan matn so'zlarining o'zaro ajralmas, yaxlit bir butun ekanligi kuzatiladi. Aksariyat qo'shiqlar g'oyaviy ta'sirchanligi, ba'zan falsafiy mushohadalarga undovchi tarzi aytuvchining kichik ovoz hajmida (bir oktavagacha oralig'ida) mahoratli kuylash darajalari bilan tinglovchini o'ziga tortadi. Vohada kichik-o'rta avjli ashula sifat qo'shiqlar ham uchraydi. Bu kabi qo'shiqlar esa asosan Mustaqillik yillarida ijod etilib, mazmunan "Vatan" mavzusidadir. (8-ilova)

Terma² – aytimning o'ziga xos turi bo'lib, inson hayotida xotirlangan his-tuyg'ularga moyillik beruvchi mavzular bilan ijod qilingan musiqiy asardir. Surxondaryo mahalliy qo'shiqchilik ijodiyotida termalarning ikki turi uchraydi. Birinchi turi shoir-baxshi termasi, ikkinchi turi xalq aytim termalari. Baxshichilik maktabi – o'zbek musiqa merosining ajralmas qismi sifatida e'tirof etiladi. SHoir-baxshilar, ovoz va do'mbira kuy-ohangini sozlash maqsadida an'anaviy doston ijrosidan oldin katta-kichik hajmdagi mardlik, botirlik, jasurlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insoniylik g'oyalarni aks ettiruvchi nasihatimiz "Botirlik maydonda sinaladi", savol tariqasidagi "Nima aytay", "Xush ko'rdik", Vatan haqida

¹ Кароматов Ф.М. Ўзбек халқи музика мероси (йигирманчи асрда). Тошкент. 1985 й. 207 б.; Иброҳимов О. "Ўзбек халқ мусика ижоди" Методик тавсиялар I-қисм.. Тошкент. 1994 й. 62-бет.

² Ўша жойда....

“Vatanim”, “Aylanayin”, “Tuprog’ingni ko’zga surtay” kabi terma kuylash an’ana bo’lgan. Salobatli “Alpomish” dostonidan olingan katta hajmdagi “Yoy–yoy” termasini aytish Surxondaryo viloyatida an’ana tusiga kirgan. Keyingi davrlarda termalarning o’ziga xos turlari rivojlanmoqda. “Mehmondirmiz” nomli an’anaviy terma shular jumlasidandir. Ushbu terma ko’plab shoir–baxshilar ijrosida kuylansada, biroq undagi muhim saqlanuvchi kuy–ohang asosi (poydevori) o’zgacha har bir baxshining o’ziga xos uslubi va qobiliyati darajasida ko’rinish kasb etadi. Shoir–baxshilar terma ijro etayotganda matn so’zlarini mohirlik bilan topib, davraga moslab kuylaydilar. Bu kabi termalarning o’ziga xos xususiyatlari she’r matnlarining ko’p misralardan iboratligida hamda ijro davomida 7–11 barmoq vazn o’lchovlari o’zgarib turishida ham kuzatiladi.(9-ilova)

Xalq aytim termalari hayotiy voqelikni aks ettiruvchi musiqiy ijodiyot bo’lib, bunda erkak va ayollarning o’ziga xos ijrolari shakllangan. Matn bandlari 10 va undan ziyod baytdan iborat bo’lgan termalarda ijtimoiy voqelik ta’rifi qatorida termachi o’ylagan o’y–xayol va ichki insoniy kechinmalar engil, hazilomuz tarzda ifoda etiladi. Xalq termalari kvarta–kvinta oralig’ida, musiqa cholg’ularisiz (ba’zan, doyra jo’rligida) aniq ritm o’lchovi asosida kuylanadi. Termalarda mujassam bo’lgan musiqiy ijodiyotning barcha tur yo’nalishlari bu uslubning nechog’lik xalqchilligi hamda milliy qadriyat sifatida ardoqlanishining yorqin ifodasidir.

Laparlar¹, an’anaga ko’ra, ko’proq yigit va qiz ijrosida to’y marosimlarda, aholining bayram tadbirlarida aytiladi. Surxondaryo xalq musiqa ijodiyotida yuqoridagilar bilan bir qatorda “qiz va qiz”, “checha va qiz” aytishuv - laparlari uchraydi. Bunday aytishuvlar asosan nikoh to’yi marosimlarida bo’yi etgan qizlar va bir uyda yashayotgan qiz va uning chechasi tomonidan cholg’ular jo’rligida kuylanadi. Laparlarning she’riy mazmunidan, ularning hazil mutoyibali, piching aralash sevgi–muhabbat, balog’at yoshiga xos engil hazil aralash savol va javob xususiyatlari tilga olinib o’tiladi. Raqs xususiyatlari bilan yo’g’rilgan yalla aytimlari

¹ Кароматов Ф.М. Ўзбек халқи музика мероси (йигирманчи асрда). Тошкент. 1985 й. 207 б.; Иброҳимов О. “Ўзбек халқ музика ижоди” Методик тавсиялар I-қисм.. Тошкент. 1994 й. 62 б.

to'y–tomosha, xalq bayram va sayllarida, ayrimlari esa nikoh to'ylarida kuylanib kelinadi. Bu namunalar mazmunan turlichadir. Masalan, ishqiy (muhabbat) mavzudagi “Hay–hay uka, uka” yallasi sho'x ufor ohangida usulida bo'lsa, “Hay yor–yor, aylanay” nomli yalla lirik qo'shiq kabi xususiyatlarga ega.(10-ilova)

Xalq orasida faqatgina ayollarga hos bo'lgan “Doyra badashlari” nomli qadimiy marosim turkumi saqlanib qolgan. Mazkur marosim viloyatning Sherobod, Angor, Muzrabot va Boysun tumanlarida uchraydi. Badashlarni mahalliy aholi doirada chalinadigan usul-ohanglar turkumi deb tushuniladi. Bizning diqqat e'tiborimizda turgan doyra badashlari mavsumiy marosimlarda, to'y marosimlarida va turli bayram tantanalarida ijro etiladi. Badash usullarida mahalliy dapp cholg'usi ishlatiladi ba'zan angishvona, qoshiq va sopol idishlaridan ham jo'rnavoz sifatida foydalaniladi.

Xulosa.

O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy hayotiga oid voqea-xodisalarni tahlil etish muhim ahamiyatga ega. Vatan tarixini o'rganish avlod-ajdodlarimiz merosini, qadriyatlarimizni taxlil etish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida O'zbekiston tarixining dolzarb muammolaridan biri o'zbek xalqining etnik shakllanish jarayoni ekanligini alohida uqtirgan edi¹. Ushbu ko'rsatmani bajarib, tarixchi olimlar o'zbek xalqi etnogeneziga bag'ishlangan qator asarlarini yaratdilar. Lekin shu bilan birgalikda etnik shakllanishning vohalarga xos xususiyatlarini o'rganish xanuzgacha amalga oshirilgan emas. Shu sababli biz o'z tadqiqotlarimizni Surxon vohasidagi etnik jarayonlarni o'rganishga bag'ishladik.

Surxon vohasidagi etnik guruhlarining yuzaga kelish tarixi etnik shakllanishi uzok davom etgan murakkab jarayondir. Tarixiy taraqqiyot davomida vohada etnik birliklar tarkib topdi va ular o'ziga xos turmush tarzi, xo'jalik mashg'uloti va urf-odatlarini yuzaga keltirdi. Yig'ilgan materiallar shuni ko'rsatadiki, vohada bugungi kundagi qo'ng'iroq etnik guruhining qadimgi ajdodlari vohaning shimoliy-g'arbiy qismlari bo'ylab keng ko'lamda joylashganlar hamda ular vohaning dastlabki chorvador urug'larini tashkil etishgan. Ulargacha va ulardan keyingi etnik guruhlarining aksariyati qo'ng'iroq madaniyatiga moslashganlar. Surxon vohasining markaziy qismida joylashgan Jaloyir etnik guruhi X – XI asrlarda Surxondaryoning ikki qirg'og'i bo'ylab joylashgan bo'lib, ularning avlodlari hozirgi kungacha aynan shu xududlarda istiqomat qilishib kelishadi. Vohadagi dastlabki etnik qabilalar to'g'risida aniq bir fikr aytish mushkul. O'tkazilgan dala so'rovlari natijasi shuni ko'rsatadiki, vohadagi etnik guruhlarining shakllanish jarayoni ularning voha bo'ylab muqim bir xududda istiqomat qila boshlaganlaridan keyin yuzaga kelgan. Voxa etnik guruhlarining shakllanish jarayonidagi muhim bir omil bu ularning aynan bir xududda xo'jalik

¹ Каримов И.А. «Тарихий хотирасиз келажак йўқ» Т., 21-бет.

mashg'ulotlarini o'zgartirmasdan olib borishi hisoblanadi. Surxon vohasi etnik guruhleri o'rtasida etnomadiy bog'liqlikning o'rni katta. Ular xo'jalikning turli ko'rinishlari orqali bir-birlari bilan chambarchas aloqada bo'lib kelganlar va o'ziga xos etnotoponimik qatlamlar yuzaga keltirganlar. Bizga hozirgi davrda ma'lum bo'lgan qarluq, turk, barlos, chig'atoy, mang'it, kaltatoy, qo'ng'iroq, qatag'on, qovchin, yuz, do'rmon kabi etnik guruhlar o'z nomlarini saqlab qolish bilan birgalikda joy nomlarida ham o'z izlarini qoldirganlar. Ushbu etnik guruhlar o'rganilayotgan hududda aralash holda emas kompakt holda massiv-massiv bo'lib yashaydilar. Chunonchi, qo'ng'iroqlar (ichki bo'linishi bilan birga) ning vakillari asosan Boysun tumanida (Rabot), Yomchi, Dashtig'oz, Sariqamish, Chorbog', G'urjak, Xomkon, Sho'rob, Xo'jabo'lg'on, Maydon, Dahnajom qishloqlarida yashaydilar. Shuningdek, Jarqo'rg'on tumanidagi (Jaloyir, Takto'qay qishloqlaridan tashqari) barcha qishloqlarda, Angor, Qiziriq, Muzrabod, Bandixon tumanlaridagi qishloqlarda tarqalganlar.

Yuzlar (juzlar) esa Sho'rchi, Denov va Sariosiyo tumanida, do'rmonlar esa Sariosiyo, Denov, Sho'rchi, Termiz, Sariosiyo tumanlarida, turklarning vakillari Denov, Sariosiyo tumanlarida, qisman Machay qishlog'i (Boysun tumani) va Boysun shahrida, qarluqlar nisbatan ozroq bo'lib, Sho'rchi va Sariosiyo tumanlarida (Toxchion, Boyqishloq, Sarimozor, Qarluq qishloqlarida), Barloslar (bular ham son jixatdan oz) esa Sariosiyo, Denov tumanlarining ayrim qishloqlarida yashaydilar.

Albatta ushbu mintaqada yashab turgan mahalliy aholining etnik tarkibi bir xilda emas. Aholining bir qismini eroniy til tizimiga kiruvchi xalqlar tashkil etadi. Tojik tilli etnoslar Boysun tumanidagi Sayrob, Panjob, Darband, Passurxi, Avlod, Sariosiyo, Qo'rg'oncha qishloqlarida, Sariosiyo tumanida esa Xonjiza, Dibodam, Xurvatan, Duoba, Xufar, Maland, Zaxona, Kishtut, Hamidarcha, Tanzirxum, Xo'jasodiq, Hisorak, Nilxon, Tirgaron, Gurud kabi qishloqlarda yashaydilar.

Bulardan tashqari, Boysun tumanidagi Sho'rsoy, Omontepa, Mirqorako'z qishloqlarida, Sherobod tumanida esa Zarabog', Poshxurt, Vandob, Sherjon, Shalqon qishloqlarida, Denov tumanidagi Sina qishlog'ida, Sariosiyo tumanida

Sangardak qishlog'ida esa o'zbek va tojik tillarida baravar gaplashuvchi aholi yashaydi. Bu xududlarda yashovchi aholiga ikki tillilik qadimdan xosdir. Shuningdek, turkmanlar ham mintaqaning o'troq aholisi bilan tig'iz etnik-madaniy munosabatda bo'lib, uzoq asrlar davomida tarixiy taqdirlari ushbu mintaqaga bilan bog'liqdir.

Yuqorida aytib o'tilgan etnik guruhlarining xo'jalik faoliyatlari bir-biridan deyarli farq qilmagan. Bu etnik guruhlar o'ziga xos urf-odat, etnomadaniyat, marosimlarni yuzaga keltirishdi. Bir so'z bilan aytganda bu etnik guruhlar Surxon vohasi etnografiyasini yuzaga keltirishdi.

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Фанлар Академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида»ги қарори // Ўзбекистон овози. 1998. 28 июль.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида Т., 2011
3. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т., Ўзбекистон.,1996.
4. Каримов И.А. «Тарихий хотирасиз келажак йўқ» Тошкент., 1998.
Каримов И. А. Баркамол авлод орзуси. Тошкент., «Шарқ », 1999.
5. Каримов И.А. Озод ва Обод Ватан эркин ва фаравон ҳаёт-пировард мақсадимиз. Т., Ўзбекистон., 2000.
6. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., Маънавият. 2008.
7. Каримов И.А. Энг асосий мезон-ҳаёт ҳақиқатини ақс эттириш.Т., 2009.
8. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Тошкент.,1994.
9. Ахмедов Б. Ўзбек улуси. Тошкент.,1992.
10. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногези ва этник тарихи. Т., 2007.
11. Абулғозий. Шажарайи турк. Т., 1992.
12. Ҳофис Таниш ал-Бухорий. Абдулланом. Шарафномаи шоҳий. 1-китоб, Т., 1999.
13. Рашид ад-дин. Сборник летописей, том 1, Москва-Ленинград., 1952.
14. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. Т., Фан.,1968.
15. Жабборов И.М. Ўзбек халқи этнографияси.-Т., 1994.
16. Жабборов И. Ўзбеклар (анъанавий ҳўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти). Тошкент, «Шарқ» нашриёти, 2008.
17. Иброҳимов О. “Ўзбек халқ мусиқа ижоди” Методик тавсиялар I-қисм.. Т., 1994.
18. Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. - М.: Наука, 1976.
19. Кароматов Ф.М. Ўзбек халқи музика мероси (йигирманчи асрда). Тошкент. 1985.
20. Умаров И. Ўрта Осиё туркий халқларининг этногези.(Қўнғиротлар). Қарши. 2003

21. Шаниязов К. Узбеки-карлуки-Т.. 1964.
22. Шониёзов К. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар.-Т., 1999.
23. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиши жараёни.- Т., 2001.
24. Турсунов С.Н. ва бошқалар. Сурхондарё тарих кўзгусида. Т.,2008.
25. Турсунов С.Н. Сурхондарё тарихи. –Тошкент., 2004.
26. Турсунов С.Н. Сурхондарё вилояти тарихини ўрганиш. Т., 1997.
27. Турсунов С.Н. Ўзбекистон тарихи ва маданияти - Сурхондарё этнографияси. Т., 2006.
28. Турсунов С.Н. Денов. Тошкент “Фан”. 2009.
29. Турсунов С.Н. Жарқўрғон. Тошкент “Фан”. 2008.
30. Турон қавмлари. Тузувчи: Зойир Зиётов, кичик энциклопедик луғат. Т., 2008.

Dala tadqiqotlari

1. Дала ёзувлари. 2010 йил, Қумқўрғон тумани.
2. Дала ёзувлари. 2010 йил июн ойи. Бойсун тумани, Кенгдала қишлоғи.
3. Дала ёзувлари, 2011 йил сентябр, Қумқўрғон тумани, Янги ер жамоа хўжалиги.
4. Дала ёзувлари. 2011 йил ноябр. Бойсун тумани.
5. Дала ёзувлари. 2011 йил ноябр. Жарқўрғон тумани.
6. Дала ёзувлари. 2011 йил, ноябр, Шеробод тумани.
7. Дала ёзувлари, 2011 йил, декабр. Олтинсой тумани.
8. Дала ёзувлари. 2011 йил декабр. Денов тумани.
9. Дала ёзувлари. 2012 йил, март. Жарқўрғон тумани, Сурхон жамоа хўжалиги, “И. Туранов” маҳалласи.
10. Дала ёзувлари. 2011 йил декабр. Жарқўрғон тумани, Сурхон жамоа хўжалиги.

Avtoreferat va jurnallar

1. Турсунов Н. Жанубий Сурхон аҳолисининг этник хусусиятлари.(XIX аср охири – XX аср бошлари). Афтореферат. Тошкент., 2007
2. Халқ сўзи, 1996 йил 17 декабрь.
3. Қурбонов А.Э. Сурхон воҳаси аҳолисининг анъанавий уй-жойлари. || Проф-ўқитувчиларнинг илмий-назарий анжумани-Термиз, 2003.
4. Қаямов А. XIX аср охири – XX аср бошларида Сурхон – Шеробод водийсидаги этник жараёнларнинг баъзи омиллари. //Ўзбекистон тарихи журнали. 2001 йил. 4-сон.
5. Қаямов А. Хўжалик – маданий типлар ва этник дифференциация масалаларига доир. //Ўзбекистон тарихи журнали. 2008 йил, 3 – сон, 63–64 бетлар.
6. Турсунов С.Н Дехқончилик анъаналари . “Тиббиёт ва ҳаёт” 2009 й 20 феврал.
7. www.arxeologiya.uz
8. [www. Google. uz](http://www.Google.uz)
9. [www. Ziyonet. uz.](http://www.Ziyonet.uz)
10. www.surxon.gov.uz